



Abdug'opir QOSIMOV



Sidiqjon XO'JAYEV

Filologiya fanlari doktori.
G'arb adabiyoti va qiyosiy
adabiyotshunoslik bo'yicha
mutaxassis. 3 ta o'quv-uslubiy
qo'llanma, 40 dan ortiq
ilmij-uslubiy maqolalar
muallifi.

Farg'ona davlat universitetida
katta o'qituvchi. Ko'p yillardan
buyon talabalarga jahon adabiyoti
fanidan saboq berib keladi. 10 dan
ortiq ilmiy-uslubiy maqolalar, 2 ta
o'quv-uslubiy qo'llanma muallifi.

ISBN 978-9943-397-07-1



XX ASR G'ARB ADABIYOTI DAN AMALIY MASHG'ULOTLAR



A.QOSIMOV, S.XO'JAYEV

**XX ASR G'ARB ADABIYOTIDAN
AMALIY MASHG'ULOTLAR**

Toshkent
«Akademnashr»
2011-yil

UDK: 821.512.133

BBK 83.3(3)

Q61

Qosimov, A.

Q61

XX asr G'arb adabiyotidan amaliy mashg'ulotlar/
A.Qosimov, S.Xo'jayev. - T.: Akademiashr, 2011. - 136 b.

I. Xo'jayev, S.

ISBN 978-9943-397-07-1

UDK: 821.512.133

BBK 83.3(3)ya7

Oliy o'quv yurtlari talabalari va o'qituvchilariga mo'ljallangan mazkur qo'llanmada XX asr G'arb adabiyoti bo'yicha amaliy mashg'ulotlar olib borish uchun tavsiyalar berilgan.

Mashg'ulotlar uchun adabiyot tarixining rang-barang oqim va yo'nalishlarga boy davri haqida tasavvur berishi mumkin bo'lgan asarlar tanlab olingan. Qo'llanmada tahlilga tortilgan asar matni (yoki asurdan olingan parcha)dan tashqari, uslubiy ko'rsatma, mashg'ulot rejasi, tanqidiy maqolalar, referat va ma'ruza mazmulari hamda adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Taqrizchilar:

D.Quronov, filologiya fanlari doktori.

A.Sabirdinov, filologiya fanlari doktori

Farg'ona davlat universiteti Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-397-07-1

© A.Qosimov, S.Xo'jayev
XX asr g'arb adabiyotidan
amaliy mashg'ulotlar.
© «Akademiashr», 2011-yil.

Kirish

KIRISH

Biz shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yashamoqdamiz. Axborot texnologiyalarining jadal sur'atda taraqqiy etishi, xusus-an, Internet tizimining har bir xonadonga kirib kelishi axborot olishni osonlashtirishi barobarida uzluksiz xabarlar ummonida es-ankirash holatlarini ham keltirib chiqarmoqda. Mana shunday vaz-iyatda talaba-yoshlarning o'z sohasi bo'yicha zarur bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada barcha sohalar bo'yicha zamonaviy talablarga javob beradigan dars-lik va o'quv qo'llanmalari yaratish hamda ulardan o'quv jarayon-ida umumli va maqsadli foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda adabiyotni o'rganish bo'yicha darslik yoki uslubiy qo'llanma yaratish birmuncha murakkab ish hisoblanishini ta'kidlab o'tish zarur. Adabiyot bo'yicha har qanday darslikning asosini tashkil etadigan yozuvchi hamda shoirlar hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarni, adabiyotshunoslik bo'yicha nazariy bil-implarni berish, asarlarni tahlil qilish bir qarashda har bir adabiy-otahunos uddalashi mumkin bo'lgan ish bo'lib tuyulishi mumkin. Biroq kitobxonlik darajasi bir oz susaygan davrda adabiyotni «targ'ib etish», so'z san'atining sehirli olamiga o'quvchini oshno qilish mutaxassislardan o'z vazifasiga jiddiy yondashishni talab etadi. Bu borada adabiyotdan amaliy va seminar mashg'ulotlari alohida ahamiyatga ega.

Oliy o'quv yurtlaridagi adabiyot bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning asosiy maqsadi talabalaridagi bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, qolaversa, ularda badiiy asarni mustaqil tahlil qilish mahkasini shakllantirishdan iborat. Oliy o'quv yurti talabalarining aksariyati badiiy asar tahlilida qiyinchiliklarga uchrayotgani kuzatilmoqda. Asar tahlilida uning tarbiyaviy ahamiyatiga urg'u berish, qahramonlarni ijobiy va salbiy guru-blarga ajratish yoki asar sujetini hikoya qilish bilan kifoyalanish holatlari adabiyot bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etishga jiddiy e'tibor berish muammosini kun tartibiga qo'yimoqda. Bu esa o'ta mas'uliyatli va murakkab vazifa hisoblanadi.

Bu borada jahon adabiyoti va chet el adabiyoti bo'yicha olib

boriladigan amaliy mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Ushbu mashg'ulotlar orqali xorij adabiy jarayonining asosiy xususiyatlarini o'zlashtirish hamda ularni o'zbek adabiyoti bilan qiyosiy planda tahlil qilish imkoniyati kengayadi.

Qo'lingizdagi qo'llanma oliy ta'limning filologiya mutaxassisliklaridagi chet el adabiyoti bo'yicha o'zbek tilida darslik va ko'rsatmalar taqchilligini oz bo'lsa-da yengishga yordam beradi degan umid bilan yaratildi. Namunaviy o'quv dasturlarida «Chet el adabiyoti», «Jahon adabiyoti» kurslari uchun amaliy mashg'ulotlarga 20 soatdan 40 soatgacha vaqt ajratilgan. Agar ushbu soatlarni davrlar bo'yicha taqsimlasak, adabiyot tarixining turli oqim va yo'nalishlarga boy, ziddiyatli davri – XX asr adabiyotiga 6 soatdan 12 soatgacha amaliy mashg'ulot to'g'ri keladi.

Bu, albatta, yetarli emas, lekin o'qituvchi tomonidan XX asr adabiyoti olami va ruhiyati, manzaralari haqida tasavvur beruvchi xarakterli mualliflar va asarlar tanlab olinsa, maqsadga erishish mumkin bo'ladi.

Ushbu qo'llanmada XX asr adabiyoti bo'yicha 7 ta muallifga to'xtalishga qaror qildik. Bizning nazarimizda, J.Joys, F.Kafka, H.Hesse, Borex, A.Kamyu, E.Xemingvay, A. de Sent-Ekzyuperi singari ijodkorlarning asarlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar olib borish XX asr nasridagi xarakterli jihatlarini, o'ziga xos evrilehlarni kuzatishga, his etishga imkon beradi. Mashg'ulotlar uchun berilayotgan reja va matnlar tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi darsni ushbu mualliflarning boshqa asarlari asosida rejalashtirishi ham mumkin.

Qo'llanmada o'qituvchi va talabalarga qulaylik yaratish maqsadida avvalo yozuvchi haqida ma'lumot, tahlilga tortilayotgan asar matni yoki asardan parcha, ushbu asar tahlili bo'yicha uslubiy ko'rsatma, dars rejasini, muallif yoki asar haqidagi tanqidiy maqolalar, referat va ma'ruza mavzulari hamda adabiyotlar ro'yxati berilgan. Qo'llanmaning bunday tartibda yaratilishi yozuvchi va uning ma'lum bir asari haqida to'liqroq tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi deb hisoblaymiz.

1-MAVZU: JJOYS (1882 – 1941)

«Evelin» hikoyasida Jeyms Joys badiiy olamining aks etishi: «Evelin» – «Uliss»ni anglashdagi mayoq

...Joys adabiy hodisa, endi u takrorlanmaydi, u mutlaqo benazir.

D.S.Lixachyov

Uni barcha narsa qiziqitardi: san'at, din, falsafa, tarix, lingvistik, fan, biroq hammasidan ko'proq – inson. ...Ruhning haqiqiy Prometeiy.

M.Kauli

Joysni o'qish kishiga cheksiz bir maroq bag'ishlaydi. Joysni mutolaa qilishga kirishgan kitobxon ahdida qattiq turib, kitobni oxirigacha o'qishi kerak.

I.G'afurov

XX asrning birinchi choragida Yevropaning uch mamlakatida keyinchalik «modernizm» deb atalgan adabiy yo'nalishga mansub deb tan olingan uch adabiy daho – Jeyms Joys (Buyuk Britaniya), Marsel Prust (Fransiya), Frans Kafka (Avstriya-Vengriya)lar ijod qildi va jahon adabiyotida yangi davrni boshlab berdi.

Buyuk irland adibi, modernistik va postmodernistik prozaning yirik vakili Jeyms Joys ijodi XX asr adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. «Joysning maktabi bo'lmasligi mumkin, biroq uning butun dunyo madaniyati va adabiyotida tutgan mavqeyi beqiyos», – degan edi akademik D.S.Lixachyov. Yozuvchi «modernizmning qomusi» deb tan olingan «Uliss» romani (1922)da an'anaviy roman janri strukturasi badiiy tasvirning yangicha tamoyil va usullari bilan almashirdi (ong va ong osti oqimi, tez o'zgarib turuvchi nuqtayi nazar, bir nechta fikrlarning parallel va kesishib harakatlanishi, ularning uzuq-yuluqligi, montaj, yangi so'z yasash). «Uliss» romani bilan birga tasvirda «ong oqimi» degan yangi bir ajoyib hodisa yaratildi. Natijada dunyo va inson-



ni yagona va yaxlit tasvirlash hamda tasavvur qilishning badiiy, falsafiy imkoniyati kengaydi.

Jejms Avgustin Aloizi Joys 1882-yilning 2-fevralida Dublinga tutash bo'lgan Ratgar shaharchasida tug'ildi. 1888 - 1891-yillarda lezuitlarning Klongouz Vud kollejida o'qigan. Ushbu o'quv yurtida kechgan hayotini keyinchalik «Musavvirning yoshlikdagi siyrati» asarida tasvirlagan. 1889 - 1898-yillari Kollej Belvederda, 1898 - 1902-yillari esa Qirollik universitetida tahsil oldi. 1891-yili to'g'iz yoshli Jejms irland ozodlik harakati rahnamosi Charlz Stuart Parnellning o'limidan ko'p vaqt o'tmay «Parnell» she'rini yozadi, 1899-yili sevimli yozuvchisi Gerix Ibsenning ijodiga bag'ishlangan «Drama va hayot» esseini yaratiladi. «Ibsenning yangi dramasi» (1901), «Avom tantanasi» (1901), «Oskar Uayld: «Salomeya» shoiri» (1909), «Bernard Shouning sensor bilan kurashi» (1909) maqolalarida Joys san'at va san'atkorning jamiyatdagi o'rni haqida o'z konsepsiyasini bayon qiladi. 1902-yilning dekabridan 1903-yilning apreligacha Parijda yashaydi. Bu yerda u «Kamer musiqasi» to'plamiga kiritilgan she'rlarini, «Epifaniyalar» (lug'aviy ma'nosi «Tangrining yuz ko'rsatishi, tangriga yetishuv») deb atagan asarini yozdi. Bu davrda hammasi bo'lib adibning 23 ta asari chop etildi. 1904-yili Joys she'rlar yozishni davom ettirdi, shuningdek, keyinchalik «Dublinliklar» to'plamidan joy olgan hikoyalari yaratildi. Adib «Dublinliklar» to'plamini tashkil qiluvchi hikoyalarni quyidagicha tasniflaydi: «Opa-singillar», «Uchrashuv», «Arabiston» hikoyalari olamni bolalarcha qabul qilishni ifodalaydi; «Evelin», «Poygadan keyin», «Ikki ritsar»da odamlarning o'spirinlik davri tasvirlangan; «Pansion», «Bulutcha», «Niqoblar», «Baxtsiz hodisa» hikoyalari qahramonlari balog'at yoshida bo'lsa, «Pechak kunida», «Xudoning marhamati», «O'liklar» alohida guruhga ajratilgan: ularda odamlar ijtimoiy guruhda tasvirlanadi. Shu yilning 16-iyunida Nora Barnakl bilan uchrashdi («Ullis» romanidagi voqealar aynan shu kuni sodir bo'ladi). 1907-yili «Qahramon Stiven» romanini qayta ishlanib, yangi nom berildi: «San'atkorning yoshlikdagi siyrati» (Ushbu asar Ahmad Otaboyev tomonidan o'zbek tiliga o'g'irilgan). Asar faqatgina 1914 - 1915-yillarda juda katta qiyinchiliklar bilan «Egoist» jurnalida, 1916-yili AQSHda, 1917-yili esa

Britaniyada alohida kitob holda nashr etildi. 1914-yilning 1-martida Joys «Ullis» romani ustida ish boshladi va uni 1921-yilning 29-oktabrida yakunladi. 1922-yili yozuvchining tug'ilgan kuni «Ullis»ning birinchi nusxalari chop etildi. 1923-yili Joys o'zining so'nggi va favqulodda asari «Finnegan yodi» romanini yoza boshladi. «Dublinliklar» Joys tomonidan yozilishi niyat qilingan Irlandiya ma'naviy tarixining birinchi bobi bo'lsa, keyinchalik uni «San'atkorning yoshlikdagi siyrati», «Ullis» bilan davom ettirdi va «Finnegan yodi» bilan yakunladi. «Finnegan yodi» romanida Liffi daryosining o'rtasida yotgan qahramonining ko'rayotgan tushlari va bu tushlaridagi Irlandiyaning tarixi hamda taqdirini aks ettiradi. 2009-yili «Ullis» romanidan boblar «Jahon adabiyoti» jurnalida IG'ofurov tarjimasida chop etilgan.

Evelin

U deraza oldida o'tirib, qanday qilib oqshom ko'chani chulg'ab olayotganini kuzatardi. U boshi bilan pardaga suyanib olgan va dimog'ida chang bosgan kreton (*qal'in ip gazlama turi*)ning hidi turardi. U charchoqni his qilardi.

Yo'lovchilar kam edi. Oxirgi uyda yashovchi odam o'z uyi tomonga o'tib ketdi; qiz uning boshmoqlari sement yo'lakda taqillashini eshitib turardi, keyin qizg'ish uylar yoqalab ketgan toshqol (*shlak*) yo'lakdan g'ichirlash quloqqa chalindi. Qachonlardir u yer bo'sh joy bo'lib, unda ular oqshom paytlari boshqa bolalar bilan o'ynardilar. Keyin belfastlik qandaydir kishi bo'sh joyni sotib oldi va u yerda ularning kichkina, qorong'i uycharlarga o'xshamagan, pishiq g'ishtli, qizil, yaltiroq tomi uylarni qurib tashladi. Bu yerlik barcha bolalar - Divaynlar, Volterslar, Dannlar, kichkina giron Kou, o'zi, aka-ukalari va singillari. To'g'ri, Ernst o'ynamasdi; u endi yosh bola emas edi. Otasi nuqul ularning ketidan tyorn butasidan qilingan kaltagi bilan quvardi; biroq kichkina Kou hushyor turar va otasini ko'rishi bilanoq ogohlantirib qichqirishga ulgurardi. Har holda u paytlar hayot yaxshi edi. Otasi bir amallab o'zini tutib turardi; bundan tashqari, onasi hayot edi. Bunga juda uzoq vaqt bo'ldi; endi uning o'zi, aka-ukalari, opa-singillari

ham ulg'aydilar; onasi vafot etdi. Tizzi Dann ham o'ldi, Uolterslar esa Angliyaga qaytib ketishdi. Hammasi o'zgarmoqda. Mana endi tez orada u ham boshqalar kabi uyidan ketadi.

Uy! U shuncha yillar mobaynida har hafta supurib-sidirgan, har gal shuncha chang qayerdan kelganiga hayron bo'lgan, o'ziga tanish barcha narsalarga tikilib qarab xonani ko'zdan kechirdi. Balki tashlab ketishni xayoliga ham keltirmagan bu tanish narsalarni ko'rish boshqa hech qachon nasib qilmas. Vaholanki, shuncha yillar ichida unga sozi buzilgan figsarmoniya (dam berib chalnadigan klavishli musiqa asbobi) tepasida, avliyo Margarita-Mariya digan Alakokning rangli litografiyasi yonida joylashtirilgan sarg'ayib ketgan fotografiyadagi ruhoniyning familiyasini bilish nasib qilmadi. U otasining maktabdosh o'rtog'i edi. Fotografiyani mehmonlarga ko'rsatar ekan, otasi iltifotsizlik bilan:

- U hozir Melburnda, - derdi.

U o'z uyini tashlab ketishga rozilik bildirdi. Aql bilan ish ko'rdimikin? U o'z qarorini har tomonlama o'ylab ko'rishga harakat qildi. Har holda uyda boshpana va bir burda noni bor; umr bo'yi yashagan odamlari bor. Albatta, uyda ham, ishxonada ham ko'p ishlashga to'g'ri kelardi. Uning bir yigit bilan qochib ketganini do'kondagilar eshitisa, nima deyishar ekan? Balki uni tentak qiz deyishar; uning o'rniga esa e'lon bo'yicha boshqa birovni qabul qilishar. Geyven xonim qivonib ketadi. U har doim qizning ishidan ayb topishga harakat qilardi, ayniqsa, yaqin o'rtada biror kimsa bo'lganida.

- Xill xonim, xonimlar kutishayotganlarini ko'rmayapsizmi?

- Xill xonim, iltifotingizni ayamay, chaqqonroq harakat qilsinlar.

U do'kon uchun ko'p ham qayg'urmasa kerak.

Biroq yangi uyda, uzoqdagi noma'lum o'lkada hammasi boshqacha bo'ladi. O'sha paytda u, Evelin, turmushga chiqqan bo'ladi. Uni hurmat qilishadi. Unga onasiga bo'lgan munosabatda bo'lmaydilar. Hatto hozir ham, o'n sakkizdan oshgan bo'lsa-da, u ko'pincha otasining qo'polligidan cho'chib turadi. Bu yurak o'ynog'iga sabab bo'lganiga ishonchi komil edi. Ular ulg'aygunlaricha otasi uni hech qachon Xerri va Ernstni do'pposlaganda do'pposlamasa edi, chunki u voyaga yetmagan qiz

edi; lekin keyingi paytlarda u po'pisa qilib, faqatgina marhuma onasining hurmati haqi urmayotganligini aytardi. Endi uni himoya qiladigan hech kimi qolmagan edi. Ernst o'ldi, Xerrining ishi cherkovlarni bezash bo'lganligi uchun doimo safarlarda bo'lar edi. Bundan tashqari, shanba kunlari pulning orqasidan bo'ladigan muttasil janjallardan toqati toq bo'ldi. U har doim ish haqi - yetti shillingni keltirib berar, Xerri ham imkoni boricha topganini jo'natar edi, biroq otasidan pul olishning o'zi bo'lmasa edi. Otasi uni isrofgar, miyasi yo'q der, mehnat bilan topilgan pullarni bo'lmalar-bo'lmasga sarflash uchun bermasligini aytar va yana allambalolarni gapirar edi, chunki shanba kuni uni epga keltirib bo'lmadi. Oxir-qoqibat u pulni berar va yakshanba kungi tushlikka oziq-ovqat olib kelish niyati bor-yo'qligini so'zardi. Shunda unga do'konma-do'kon yelib-yugurishga, qo'lida qora charm karmonni mahkam ushlab turtilib-surtilib olomon orasidan yorib o'tishga va xarid qilishgan yuldarini ko'tarib uyga juda kech qaytishga to'g'ri kelardi. Xo'jalikni boshqarish, qaramog'iga qoigan ikki ukasining o'z vaqtida maktabga borishi, vaqtida ovqatlanishiga ko'z-quloq bo'lish - bu og'ir edi. Og'ir ish - og'ir hayot, biroq endi u ketishga qaror qilganda bunday hayot u darajada yomon emasdai tuyulardi.

U Frenk bilan boshqa hayotni izlash uchun ketishga qaror qildi. Frenk juda mehribon, dovyurak, halol odam edi. U albatta kechki paroxodda u bilan birga ketadi, uning xotini bo'ladi, u bilan Buenos-Ayresda uni kutayotgan uyida yashaydi. U o'zining u bilan bo'lgan birinchi uchrashuvini juda yaxshi eslaydi; u qiz tez-tez borib turadigan asosiy ko'chadagi uyda yashar edi. Bunga atigi bir necha hafta bo'lganday tuyulardi. U darvoza oldida turar, kepikasi ensasi tomon surilib ketgan, bir tutam sochi bug'doyrang yuziga tushib turardi. Keyin ular tanishishdi. Har oqshom yigit uni do'kon oldida kutib olar va uyigacha kuzatib qo'yardi. Kunlarning birida «Lo'li qiz»ga olib borganida, u bilan o'zi o'rganmagan qulay joylarda o'tirganda shunday g'ururlandiki. U musiqauni juda yaxshi ko'rar va o'zi ham xirgoyi qilib turardi. Hamma yigit unga xushtor ekanligini bilardi, shu sababl Frenk dengizchini sevuv-

¹ Irland kompozitori M.U.Balfning taniqli operasi.

chi qiz haqida qo'shiq kuylaganida u yoqimli xijolatni his qilardi. Yigit unga hazillashib Makovka² deb ism qo'yib olgan edi. Oldiniga oshig'i paydo bo'lganligi xush keldi, keyin esa yigit unga yoqa boshladi. U uzoq o'lkalar haqida juda ko'p narsa gapirib berardi. U ish faoliyatini yungalkedan³ boshlagan, Kanadaga suzuvchi Allen yo'lida qatnovchi kemada oyiga bir funtiga xizmat qilgan. Unga o'zi xizmat qilgan kemalar, liniyalarning nomlarini sanab berardi. U bir vaqtlar Magellan bo'g'ozida suzgan va unga dahshatli patagoniyaliklar haqida so'zlab bergan. Endi, uning so'zlariga qaraganda, Buenos-Ayresda muqim o'rnatishgan va vataniga faqat ta'tilga kelgan. Albatta, otasi hammasidan xabar topdi va uni hatto xayoliga keltirishni ham taqiqlab qo'ydi.

– Bilamiz, ko'p ko'rganimiz unday matrosalarni, – dedi otasi.

Kunlardan birida otasi Frenk bilan janjallashib qoldi, shundan keyin sevgilisi bilan yashirincha uchrashishga to'g'ri keldi.

Ko'chada oqshom quyuqlasha boshladi. Uning tizzalarida yotgan ikkita xatning oq dog'lari xiralashib qoldi. Bittasi Xerriga, ikkinchisi esa otasiga edi. U Ernstin juda yaxshi ko'radidi, lekin Xerrini ham yaxshi ko'radi. Keyingi paytlarda otasi anchagina qaridi; unga o'rni judayam bilinadi. Ba'zida u juda mehribon bo'lib qoladi. Yaqinda u (qiz) kasal bo'lib, bir kunga yotib qoldi, shunda u (otasi) arvohlar haqida hikoya o'qib berdi va o'choqda burda nonni qovurib berdi. Yana, onasi u paytlar tirik edi, ular Xaut-Killa⁴ sayrga chiqqan edilar.

Otasi bolalarni kuldirish uchun onasining shlapasini boshiga beo'xshov ilib olgani esida.

Vaqt o'tib borar, u esa hanuz boshini pardaga suyaganicha changlangan kreton hididan nafas olib deraza oldida o'tirar edi. Ko'chadan uzoqlarda chalingan sharmanka⁵ tovushi eshitilardi. Ohang tanish edi. Sharmanka uni aynan shu oqshom, onasiga bergan va dasini, imkonli boricha uyni uzoqroq vaqt tashlab ketmaslikni eslatish uchun, o'ynaganii taajjublanarli edi. U onasining

² Makovka – ko'knor urug'idan qilingan konfet.

³ Yunga – kemada shogird bola.

⁴ Dublin ko'rfazidagi uncha katta bo'lmagan tog'.

⁵ Sharmanka – burab ehalnadigan qutisimon musiqa asbobi.

o'limi arafasidagi so'nggi tunni esladi; u yana dahlizning narigi tomonidagi tor va qorong'i xonada edi, ko'chada esa italyancha g'argin qo'shiq yangrardi. O'shanda sharmankachiga olti sent berish edi, ketishini aytishgan edi. U otasi o'zidan o'zi mamnun holatda bemor yotgan xonaga kirayotib:

– La'nati italyaliklar! Shu yerga ham sudralib kelishibdi-ya, – deganini esladi.

Ko'z o'ngida onasining namoyon bo'lgan taqdiri butun vujudini g'am-g'ussaga to'ldirdi – ko'rinmas qurbonliklarga to'la va aqldan ozish bilan nihoyasiga yetgan umr. U yana onasining ahmoqona o'jarilik bilan qayta-qayta aytgan gaplarini eshitib, titrab ketdi: «Huzur-halovatning oxiri – og'riq! Huzur-halovatning oxiri – og'riq!»

U o'zini chulg'ab olgan dahshatdan sapchib turdi. Qochish! Qochish kerak! Frenk uni qutqaradi. Yigit unga hayot baxshida qiladi, balki muhabbat ham. U yashashni xohlaydi. Nima uchun u baxtsiz bo'lishi kerak ekan? Uning baxtli bo'lishga haqqi bor. Frenk uni quchib, bag'riga bosadi. U uni qutqaradi.

U Nort-Uoll pristan (*kemalar to'xtaydigan joy*)da yugurib-yelib yurgan olmon ichida turardi. Yigit uni qo'ldan ushlab turar, qiz uning qanday gapirayotganini, sayohat haqida to'xtovsiz hikoya qilayotganini eshitib turardi. Pristanda askarlar buyum xaltalari bilan uymlashib turardilar. U pavilyonning keng eshigidan shundoqqina qirg'oq bo'yida turgan illuminatorlari yoritilgan kemanding qora haybatini ko'rdi. Qiz jim edi. U yuzi oqarib ketgani va muzlay boshlaganini his qildi va umidsizlikdan o'zini yo'qotib, ibodat qilar, xudodan burchi nimada ekanini anglatishni iltijo qilardi. Kema tuman tomonga cho'ziq, mungli gudok chaldi. Agar u ketsa, ertaga ular Frenk bilan ochiq dengizda Buenos-Ayres tomonga suzib ketayotgan bo'ladi. Chiptalar sotib olinib bo'lgan. U qiz uchun shuncha yaxshiliklar qilgandan keyin ortga chekinib bo'ladi? Chorasizlikdan bo'g'zida ko'ngil aynishni his qildi va u tinimsiz lablarini sal qimirlatib, ovoz chiqarmasdan ibodat qilardi.

Qo'ng'iroq uning qalbini tilib yubordi. U Frenk qo'lini sig'ganini his qildi.

– Ketik!

Uning qalbi atrofida barcha dengizlarning to'liqlari qattiq to'liqlanardi. U (yigit) uni ana shu girdobga tortmoqda; u (yigit) uni cho'k tirib yuboradi. U ikki qo'llab temir panjaraga yopishib oldi.

- Ketdik!

Yo'q! Yo'q! Yo'q! Bu aqlga sig'maydi. Uning qo'llari beixtiyor panjarani mahkam ushlab oldi. Uni yutib yuborayotgan girdobga umidsizlik faryodini tashladi.

- Evelin! Evi!

Yigit to'siq ortiga tashlandi va uni ortidan borishga chorladi. Kimdir yigitga qichqirdi, lekin u hanuz chaqirardi. Qiz nochor jonivorday oqarib ketgan yuzini unga qaratdi. Qizning ko'zlariga uning mehriy boqar, xayrlashmas, tanimas edi.

(S.Xo'jayev tarjimasini)

Drama hayot bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarur degan fikr «Drama va hayot» maqolasining asosiy tezisi hisoblanadi. Joys dramani sahna uchun yaratilgan ma'lum bir janrdagi asar emas, balki san'atning eng yuksak janri, adabiyotni esa undan quyida turuvchi shakl deb qabul qilgan. Adibning fikricha, «adabiyot xususiy hayotiy ziddiyatlar va xarakterlar doirasi», drama esa «insoniy haqiqatning boqiy va o'zgarmas doirasidir». «Drama suratda, romanda, hikoyada tasvirlanishi, qo'shiq qilib kuyilanishi mumkin.

Joys badiiy asarlarni uch turga - lirik, epik va dramatik turga ajratadi. Uning yozishicha, san'at sodda turdan murakkab turga qarab rivojlanadi, ya'ni lirikadan dramaga. Uning o'zi shunday yo'lni bosib o'tdi, she'r'lardan boshlab, hikoyaga murojaat qildi, keyin esa romanga. «Uliss» drama sifatida rejalashtirilgan Joys tushunchasidagi dramaning o'ziga xos xususiyatlarini uning hikoyalarda namoyon bo'ladi.

«San'at - hayotning asosiy ifodasi», - deb hisoblagan edi Joys. Bu mulohaza uning *epifaniyalarida* amalga oshiriladi. Epifaniyalarning asosiy xususiyati shundaki, unda muallif ish-tirok etmaydi, uning aralashuvsiz kundalik turmush detallari orqali hayotning bir parchasi qayta tiklanadi. Yozuvchi diqqat-e'tiborini inson ko'zining ma'naviy ochilishi, ruhiy kuchlarining tang ah-

volga tushib qolgan daqiqalariga qaratadi va shu yo'l bilan hodisa-ning mohiyatiga chuqur kirib boradi. Joysning talqiniga ko'ra, epifaniyalar - u yoki bu hodisalarning o'rnini muhit bilan bog'liq ravishda aniqlashdagi anglash lahzasi va idrokning yuqori darajasidir. Yozuvchining vazifasi ana shu lahzalarni sinchkovlik bilan kuzatib tasvirlashdir.

Joys epifaniyalari qahramon nutqiga asoslangan bo'lib, asosan monolog va dialoglardan iborat. Bu bejiz emas, albatta. Bunday yechim epifaniyalarga asoslangan qisqa asarlardagi kuchli taassurot, rivoyaning dramalashtiriluvchi negiziga quriladi. Ularga aniq-ravshan, alliteratsiyalarga boy, ba'zan esa ritmik xarakterdagi nasr xosdir. «Epifaniyalarning o'ziga xosligi shundaki, - deydi Joys shunos olimi E.Geniyeva, - ular hikoyaga nisbatan boshqacha ritmik va emotsional qurilishga ega bo'ladi».

Joys poetikasining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu muallif nutqining yaqqol ajralib, bo'rtib turmasligidir. Ko'p hollarda asar muallif tomonidan hikoya qilinayaptimi yoki personajning o'zi so'zlayaptimi - farqlab bo'lmaydi, muxtasar muallif nutqi birdan uziladi-da, matn o'zgacha tus oladi.

«Evelin» hikoyasi o'quvchini Joysning badiiy olamiga olib kiradi.

Uslubiy ko'rsatmalar

«Evelin» hikoyasini o'qib chiqqach, uni muhokama qilish, asar nima haqida degan savolga javob izlash ehtiyoji paydo bo'ladi.

Ta'kidlash joziki, «Dubinliklar» to'plamiga kiritilgan har bir hikoyada XX asr boshlarida Dublinda yashagan bir yoki ikki odamning hayotidan lavha keltirilgan. «Evelin» hikoyasida onasi o'limidan keyin uy yumushlarini bajarish, otasi va ikki ukasini parvarish qilish zimmasida bo'lgan, do'konda sotuvchi bo'lib ishlovchi Evelin Killing hayotida yuz bergan hodisa haqida gap boradi. Dengizchi Frenk bilan uchrashuv hayotini o'zgartirish imkonini beradi: qiz «o'zgacha hayotni izlash» uchun u bilan uzoq o'ikalarga ketishga rozilik bildiradi. Qiz uzil-kesil bir qarorga kelgan. Ketishi arafasidagi so'nggi kechada Evelin yoshligini, onasini, uyida yashagan yillarini eslaydi. Hikoyani shu tarzda bayon qilishda

davom etib, uning asosiy ikki lahzasini: 1) Evelinning uyni tashlab ketishga qaror qilishi; 2) bu qarordan voz kechishini ajratib ko'rsatish mumkin. Biroq bu Joys asaridagi voqealik bo'lmaydi.

Endi quyidagi savollarga javob topishga harakat qilamiz: Xo'sh, nima sababdan Evelin uyini tashlab ketmoqchi va nima uchun o'z qaroridan qaytdi? Bularsiz hikoyaning o'zi yo'q.

Hikoya mazmunini gapirib berish uning o'ziga xos xususiyatini ochib bera olmaydi. Hikoyaning o'ziga xosligi - foydalanilayotgan so'zlarning tartibida. Yozuvchi tasviriylik vositasi sifatida so'z va tildan erkin foydalangan. O'z davrida yozuvchini ingliz tilini tamoman buzishga, kamsitishga urinishda ayblaganlar (Masalan, R.Oldington).

«Evelin» ikki qismdan iborat: 1. Uyda Evelin xotirlaydi, o'ylaydi, qaror qabul qiladi. 2. Portda Evelin o'z fikrini o'zgartiradi, uyda qolishga qaror qiladi. Bu qismlar hajm jihatdan bir-biridan keskin farq qiladi.

Tahlil jarayonida quyidagi savollarga javob topishga harakat qilish kerak:

Nima sababdan birinchi qism ikkinchisiga qaraganda ancha katta? Birinchi qismda Evelinning Frenk bilan ketishdan voz kechishi mumkinligiga ishora bormi?

Joys Evelinning fikrlash jarayonini qanday usullar yordamida tasvirlaydi?

Evelin qachon aniq qarorga keladi - birinchi qismdani yoki ikkinchi qismda?

Birinchi qismda Evelinning hayoti va oilasi haqidagi asosiy ma'lumotlar berilgan. Ikkinchi qismda esa butun diqqat-e'tibor yakuniy qaror qabul qilish lahzasiga qaratilgan.

E'tiborimizni matnning birinchi jumalari qaratamiz (hikoyaning birinchi qismi):

«U deraza oldida o'tirib qanday qilib oqshom ko'chani bosib olayotganini kuzatardi.

Yo'lovchilar kam edi...

Uy! U... xonani ko'zdan kechirdi...

U o'z uyini tashlab ketishga rozilik bildirdi. Aql bilan ish ko'rdimikin?..

Biroq yangi uyda, uzoqdagi noma'lum o'lkada hammasi boshqacha bo'ladi...

U Frenk bilan boshqa hayotni izlash uchun ketishga qaror qildi.

Ko'chada oqshom quyuvqlasha boshladi...

Vaqt o'tib borar, u esa hanuz deraza oldida o'tirardi...

Onasining ko'z o'ngida namoyon bo'lgan taqdiri butun vujudini g'am-g'ussaga to'ldirdi - ko'rinnmas qurbonliklarga to'la va aqldan ozish bilan nihoyasiga yetgan umr...

U o'zini chulg'ab olgan dahshatdan saphib turdi. Qochish! Qochish kerak!..

Ushbu jumalarda Evelinning uyida eslab, o'ylab, bir qarorga kelishga urinib o'tirgandagi holati tasvirlangan. Birinchi va oxirgi jumalardan tashqari barchasi Evelinning o'tmishi haqida: bolalik xotiralari; u uyda o'ziga tanish bo'lgan narsalarni tomosha qilayotib otasi haqidagi, keyin do'kondagi, Frenkning o'tmish hayoti, o'zining u bilan bo'lgan uchrashuvi, keyin yana bolaligi, onasining o'limi haqidagi o'y-fikrlarga o'tadi. Faqat oxirgi jumlada kelajagi va «baxtli yashashga haqqi borligi» haqidagi o'y-xayollarga beriladi.

Nima sababdan yozuvchi qahramonning aynan shunday fikrlash harakatini tanlagan?

Birinchi sabab: bu Joysga o'tmish, xotira orqali Evelinning hozirgi holatini ochib berishga yordam beradi. Bu uning shaxsini his qilish, unga yaqinlashish imkonini yaratadi. Yozuvchi boshqa yo'ldan ham borishi mumkin edi, misol uchun, Evelinning og'ir turmushini, barcha qiyinchiliklarni batafsil ta'riflashi mumkin edi. Biroq bunday obyektiv bayon usuli biz bilan qahramon o'rtasida ma'lum bir oraliq masofa paydo bo'lishiga olib keladi. Joys boshqa yo'lni tanlaydi: Evelinning ong oqimini, fikrlari harakatini tasvirlaydi. Biz uning ongida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni kuzatamiz.

Matnning bunday tashkil qilinishiga boshqa sabab ham bor (hozirgi zamondan o'tmishga qaytish): matnning bunday qurilishi Evelinning yelkasida turgan o'tmish yuki uning uchun qanchalik qadrli ekanini, uni ushlab turgan kuchdan xalos bo'lish qanchalik og'irligini ochib beradi.

Ikkinchi qismga o'tar ekanmiz, biz zimdand, sekin-astalik bilan

Evelinning Frenkka rad javobini berishiga tayyor bo'lamiz, vabolan-ki, qizning qarorini o'zgartirishiga turtki bo'lgan sabablar haqida to'g'ridan to'g'ri hech nima deyilmagan, tushuntirilmagan. Bu qizning o'zi uchun ham kutilmaganda sodir bo'ladi, shu sababdan uni qo'rquv bosadi, vahimaga tushadi, xudoga nola qilib to'g'ri yo'l ko'rsatishini so'raydi.

Nima sababdan Evelin o'z qarorini o'zgartirdi degan savolga birinchi qismdayoq javob topishimiz mumkin.

Ko'sh, hikoyada o'tmish, hozir va kelajak o'rtasidagi aloqa, zamon kategoriyasi qay tarzda amalga oshiriladi?

Voqealar haqida zamonisiz bayon yoki hikoya qilib bo'lmaydi, biroq vaqtning harakati, o'Ichovini tasvirlashning ko'plab usullari mavjud. Hodisalarni ularning ketma-ketligini saqlagan holda aytib berish mumkin. Hikoyaning hodisalar tartibini buzib, ba'zi voqealarni batafsil, boshqalarini esa sinq holda bayon qilish mumkin.

Sujet makoni katta bo'lmagan «Evelin» «qisqa hikoyasida» bu qanday sodir bo'ladi? Hozirda Evelin boshidan kechirayotgan inqirozni his qilish va anglash uchun Joys bizni uning o'tmish bilan bog'liq kechinmalari doirasiga olib kiradi. Birinchi beshta jumladan Evelinning hozirgi paytdagi holati tasvirlansa, oltinchi jumladan qiz o'z o'tmishiga qaytadi. Kelajak haqida esa to'rt jumladan go'yoki yo'l-yo'lakay, aytiladi («Biroq yangi uyda, uzoqlardagi noma'lum o'lkada hammamiz boshqacha bo'ladi» va b.).

Hikoyadagi vaqt qatlamining tizimi mana shunday. Evelinning ichki ovozi qanday berilganligini kuzatish mumkin. Misol uchun, ikkinchi va to'rtinchi satr boshining jaranglashida keskin farq bor: ikkinchida nafaqat bolalik haqidagi xotiralar, balki ohang ham, uning jarangi ham bolalarcha, to'rtinchida esa balog'at yoshiga yetgan Evelinning, fikrlovchi odamning, ovozi eshitiladi. To'rtinchi satr boshida Evelinning ovozi muallifning ovozi qo'shilib ketadi. Birinchi va uchinchi jumla muallifga tegishli. Shuni ta'kidlash lozimki, hikoya matnida «muallifning aralashuvi» juda kam.

Endi yana yuqoridagi savolga qaytsak: hikoya nima haqida? Uning mavzusi qanday? Evelin tushib qolgan vaziyat, hayoti va uning urinishi amalga oshmaganligi haqida.

Ammo hikoya faqatgina Evelin haqidami? Nima sababdan Joys

Evelin ketmaslikka qaror qilganligiga javob topishni o'quvchining o'ziga havola qiladi, biroq shunisi aniqki, Frenk chorlayotgan yangi hayot unga halok etishi muqarrar bo'lgan girdobni eslatadi. Umumlashtirib aytish mumkinki, Evelin yangicha yashashni xohlaydi, orzu qiladi, biroq hozirgi hayotiga ko'nikib qolgan. Evelin oldida turgan muammoga ko'pchiligimiz duch kelganmiz.

Hayotni keskin o'zgartirish oson emas; o'z odatlari, majburiyatlaridan voz kechish qiyin; onasiga bergan va'dasi, uyi, ukalari, hatto otasining qo'poligi – bularning barchasi Evelinni ushlab turadi.

«Evelin» «Dublinliklar»ning bir qismi. Bu ma'lum bir davrdagi Irlandiya, Dublindagi muhit haqidagi hikoya. Uni yozar ekan, Joys «falajlik markazi» bo'lgan shaharning ma'naviy tarixi haqidagi bobni yaratadi.

Pristandagi sahnada asta-sekinlik bilan kuchayib borgan keskinlik, tanglik shiddatli nuqtaga yetadi. Evelin «qochish», «yangi hayotni boshlash» niyatidan qaytadi. «Aqlning ravshanlashishi», «ko'zning ochilishi» («epifaniya») qahramonning tashqi harakatlarida namoyon bo'ladi: «Uning qo'llari panjarani mahkam ushlab oldi. Uni yutib yuborayotgan girdobga umidsizlik faryodini tashladi. Qiz nochor jonivorday oqarib ketgan yuzini unga qarattirdi. Qizning ko'zleri unga mehrsiz boqar, xayrlashmas, tanimas edi». Asarda «falaj» muhitda yashayotganlarning ayanchli taqdiri, chorasizligi tasvirlanadi.

Amaliy mashg'ulot rejası (1-variant)

1. Joys san'at, adabiyot va san'atkorning vazifasi haqida.
2. «Dublinliklar» to'plamining Joys ijodidagi o'rni.
3. «Dublinliklar»ning tuzilishi va unda «Evelin» hikoyasining o'rni.
4. «Evelin» hikoyasining tahlili.

Amaliy mashg'ulot rejası (2-variant)

1. «Evelin» hikoyasi «Dublinliklar»ning bir qismi sifatida.
2. Vatan taqdiri, davr, muhit mavzusining yoritilishi.

3. Qahramonni tasvirlash tamoyillari.
4. Asarda «ong oqimi»ning qo'llanishi.
5. «Epifaniya»ning qahramon harakatlarida namoyon bo'lishi.

Matnlar

Джойс Дж. Дублинцы // Джойс Дж. Соч.: В 3 т. - М., 1994. Т.1.

Жойс Ж. Улисс // Жаҳон адабиёти. 2009.

Ilmiy-tanqidiy adabiyotlar

Гешева Е.Ю. Перечитывая Джойса... // Джойс Дж. Дублинцы - М., 1982.

Дудова Л.В., Михальская Н.П., Трыков В.П. Модернизм в зарубежной литературе - М., 2001.

Михальская Н.П. Джойс, Джеймс // Зарубежные писатели: Библиографический словарь. В 2 ч. - М., 2003. Ч.1.

Михальская Н.П. и др. Зарубежная литература XX век: практикум. - М.: Дрофа, 2007.

Жураев Т. Онг оқими. Модерн. - Фарғона, 2009.

Рафуров И., Солижонов Й. Улисс дунёсидаги эвриликлар / Шарҳ юлдузи. 2010. №1. - Б.116 - 123.

Referat va ma'ruzalar uchun mavzular

1. Joys hikoyalari Irlandiya va Dublin obrazi.
2. Joys estetikasida «epifaniya» tushunchasi «Dublinliklar» to'plami hikoyalari epifaniyalar.
3. Joysning «San'atkorning yoshlikdagi siyrati» romanida ijodkor shaxsining shakllanishi.

2-MAVZU: F.KAFKA (1883 - 1924)

F.Kafka hikoyatlarining o'ziga xos badiiy xususiyatlari

Nemis tilidagi XX asr adabiyoti murakkab va ziddiyatli bo'lib, Germaniya, Avstriya, Chexiya (Praga), Shveysariya kabi turli milliy madaniyatlarga mansub bo'lgan, lekin yagona tilda ijod qilgan yozuvchilarni birlashtirishi bilan xarakterlidir.

Frans Kafka - XX asr nemis zabon adabiyotining yirik vakili. U yahudiy xizmatchisi oilasida tug'ilgan, Praga universitetining huquqshunoslik fakultetini tamomlagan, Praga guruhi yozuvchilariga mansub bo'lib, asarlarini nemis tilida yozgan. Kafka tabiatan kamsuqum inson bo'lganligi bois do'stlari doirasi ham juda tor edi. Ushbu doiraga Oskar Pollak, Maks Brod, Oskar Baum, Milena Esenskayalarni kiritish mumkin.

F.Kafka ijodiy merosini 1927-yili chop etilgan «Amerika» (1911 - 1916), 1925-yili nashrdan chiqqan «Qasr» (1922), «Jarayon» (1915 - 1918) romanlari, «Otamga maktub», «Kundaliklar», «Milenaga xatlar» tashkil qiladi. Yozuvchi o'z asarlarini chop ettirishga qiyinchilik bilan rozilik beradi. Uning ilk hikoyalari 1905-yildan boshlab turli jurnallarda chop etila boshladi, 1905-yili «Bir kurash bayoni» novellasidan 2 ta parcha, 1908-yili asarlaridan 8 ta parcha, «Kuzatuv» to'plami (1913), «Hukm» (1913), «O't yoquvchi» hikoyalari (1913), «Evrilish» novellasi (1916) chop etilgan. 1915-yili F.Kafka eng nufuzli adabiy mukofotlardan biri - Fontane mukofotiga sazovor bo'lgan. Birinchi jahon urushidan keyin uning «Qishloq vrachi» to'plami (1917), «Axloq tuzatish koloniyasida» hikoyasi (1919) va «Golodar» to'plami (1924) chop etildi. Hozirgi paytga kelib yozuvchining adabiy merosi 10 jildni tashkil etadi.

Kafkaning o'z ijodiga bo'lgan munosabati o'ta ziddiyatli bo'lib, o'limidan oldin Maks Broddan qo'lyozmalarni yo'q qilib yuborishni so'ragan. Tirikligida Frans Kafkani Praga guruhiga kiruvchi tor doiradagi ijodkorlar: yozuvchilar, rassomlar, san'atkorlar va



yangi san'at tarafdorlari bilar edilar. F.Kafkaning asarlari XX asr badiiy tafakkurida yuz bergan global siljishlarni hamda urush va inqiloblar davridagi ijtimoiy bo'ronlar va insonning olamdagi o'rnini haqidagi yangicha tasavvurni aks ettirdi. Odatda, F.Kafkaga boshqa ijodkorlarning ta'siri bo'lmagan degan fikr ustunlik qiladi. Bu unchalik to'g'ri bo'lmasa kerak, chunki yozuvchining qo'lyozmalarida F.Dostoyevskiy, A.Gersen, Ch.Dikkens, I.V.Gyote, G.Kleyst, G.Byuxner, F.Griparslerlar ijodiy merosining uning ijodida tutgan o'rnini haqidagi ko'plab qaydlarni uchratish mumkin. Rus yozuvchisi V.Nabokov Kafka G.Flober uslubidan ijodiy foydalanganligini qayd etadi. Kafka ijodini tadqiq etgan olimlarning aksariyati uning uslubida realistik tasvir bilan asosiy voqealarning haqiqatdan mutlaqo yiroqligi uyg'unlashib ketganligini ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, fantastik, ishonish qiyin bo'lgan voqealar haqida bu qadar ehtirossiz va sokin ohangda yozgan adibni uchratish qiyin.

«Evrilish» hikoyasining qahramoni Gregor Zamzaning qo'ng'izga aylanishi ana shunday ohangda yozilgan. Jirkanch hasharotga aylanib qolgan qahramon ham, muallifning o'zi ham hech narsadan ajablanmaydilar, go'yoki dunyo ostin-ustun bo'lgani yo'q, hamma narsa o'z o'rnida turganday. Aynan mana shunday osuda, lekin «shafqatsiz» uslub Kafkaga xosdir.

F.Kafka shaxsi, ijodi, dunyoqarashi ko'plab bahslarga, tortishuvlarga sabab bo'lishidan qat'i nazar, uning asarlari dunyoning ko'plab tillariga, jumladan, o'zbek tiliga («Jarayon», «Otama xat») ham tarjima qilingan.

Kafka ijodining olamshumul ahamiyati, jahon adabiyotidagi o'ziga xos o'rnini adabiyotshunos olimlar, adiblar tomonidan allaqachon e'tirof etilgan. Quyida berilayotgan xulosalar sizlarga yozuvchi ijodi o'z ko'lami va mohiyati bilan beqiyos ekanligini his qilishga yordam beradi deb umid qilamiz.

Haqiqiy reallik hamma vaqt norealdir.

F.Kafka

Bu romanni («Jarayon») tushunish uchun uni uzun va murakkab tush kabi qabul qilmoq lozim.

E.Fromm

Kafka «Jarayon»da tashxis qo'yadi, «Qo'rg'on»da esa davolaydi.

A.Kamyu

Bu asar («Jarayon») nafaqat Kafka ijodini, balki jahon adabiyotini ham yangi pog'onaga ko'tardi.

U.Normatov

F.Kafka toifasidagi adiblar yaratgan boqiy asarlar... inson qalbining nigoh ilg'amas puchmoqlariga safar qilish uchun ma'naviy safar anjomi, vositasi vazifasini o'taydi.

Xurshid Do'stmuhammad

Kafka roman va novellalarida gunohga botgan inson qismatini bor bo'y-basti bilan tasvirlaydi. Kafka afortizmlarida Ilohiy so'zga ishonch bor. U so'z insonni xalos qilishga ishonadi. Insonga, uning qalbi va ruhiyatiga bo'lgan ishonch Kafka ijodining asosi hisoblanadi. Kafkada inson qudratiga bo'lgan asov bir ishonch sezilib turadi. Kafka qancha o'rganilmasin, u yana sirliligi, jozi-badorligicha qolaveradi. Sehrli bir ohanvabadek kitobxonlarni o'ziga chorlab, inson matomati, buyukligi va teranligidan saboq beradi.

Jabbor Eshonqul

Dohiyona fikrlar hajm, mahobat bilan belgilanmaydi. Shu jihatdan insoniyat oldida ulug' rus adibi yarim umrini yashagan Kafkaning xizmati Tolstoynikidan kam emas.

Vafo Fayzulloh

Frans Kafka hikoyatlari

Yozuvchining o'limidan keyin Maks Brod tomonidan Kafkaning «Amerika», «Jarayon», «Qasr» romanlari, novella va hikoyalari, xatlari va deyarli tayyor ko'plab badiiy matnlari mavjud bo'lgan kundaligi chop ettirilgach, adib ijodiy merosining ko'lami ma'lum bo'ldi. Agar Kafka tomonidan nashr qildirilgan asarlarga nazar tashlansa, matnlardagi sirliliklarga qaramay, ularning ma'lum ma'noda yakunlanganligining guvohi bo'lamiz. Ularning har birini alohida yoki yozuvchi tomonidan ajratilgan turkumlar chegarasida tahlil qilish mumkindek tuyuladi. Biroq asarlar, xatlar, kunda-

likdagi yozuvlar bilan to'liq tanishgach, Kafkaning butun ijodini yaxlit bir matn sifatida qabul qilish kerakligiga amin bo'lamiz.

Bu ma'noda yozuvchining ilk yirik asari «Bir kurash bayoni» (1903 – 1904, yozuvchi-muallif hayotligida chop ettirmagan) namuna bo'lib xizmat qiladi, chunki unda Kafka hayoti davomida yozadiganlari ixcham, siqiq holda berilgan. Adib yaxlit matndan bir nechta parchalarni ajratib olib, mustaqil asar sifatida turli turkumlar tarkibida chop ettiradi. «Daraxtlar» hikoyati («Bir kurash bayoni»dan) ana shunday parchaga yorqin misol bo'ladi. Asar boshlanishi go'yo undan oldin qandaydir mulohazalar aytilgan-u, endi undagi fikr davom ettirilayotganday tasavvur uyg'otadi: «Ilo, biz qishda kesilgan daraxtlar misolimiz». «Biz – daraxtlar» hikoyatga asar xos bo'ladigan istioradir. Biroq obraz shu darajada mavhumki, agar paydo bo'ladigan so'niq, tushkunlik kayfiyati e'tiborga olinmasa («qishda», «kesilgan»), fikr hech qanday mazmun kasb etmaydi, bu mazmun yo'nalishini topish kerak.

Bu yo'nalish ikkinchi jumlada topilganday bo'ladi: «Go'yo ular qorga shunchaki sirpanib tushgan-u, yengilgina turtib yuborilsa, o'rindan qo'zg'oladigandek». Aniq-ravshan ko'rinib turibdiki, iboraning o'zida uning mantiqiy davomi mavjud: agar tuyulsa, demak, uni qo'zg'otib bo'lmaydi. Nima uchun? Eng oddiy taxmin: «Yo'q, ularni qo'zg'atib bo'lmaydi, ular muzlab yerga mahkam yopishib qolgan». Agar birinchi va ikkinchi iboralar bir-biriga mantiqan bog'langan bo'lsa, bu bog'liqlik mavjud variantlardan birigina bo'lsa, ikkinchi va uchinchi iboralar bir-biriga sabab-oqibat aloqasi bilan uzviy bog'lanadi.

Shu sababli uchinchi ibora kutilganidek: «Yo'q, ularni qo'zg'otib bo'lmaydi, ular muzlab yerga mahkam yopishib qolgan». Uning o'z qonuniy joyida paydo bo'lishi muayyan istiorani tahlil qilishdan ko'ra kengroq fikrni talab etadi: hech qachon narsalarning tashqi ko'rinishiga qarab baho berish kerak emas, ularning mohiyati, sababini anglash kerak. XIX asr realistlari ana shunday fikrlar, pozitivistlar esa bunda falsafaning mohiyatini ko'rardilar. Aslida gap daraxtlar haqida emas, biz haqimizda.

Kafka to'rtinchi iborani qo'shadi: «Biroq, taassufki, bu shunday tuyuladi, xolos» va unda biz adibning jahon madaniyatiga qo'shgan hissasini, ya'ni yangicha tafakkurni ko'ramiz.

Kafka barcha tomonidan qabul qilingan tafakkur qoidalariga zid qarash – paradoks yaratadi. Agar Uayld yoki Shou paradokslarini qiyinchilik bilan bo'lsa-da «mag'zini chaqish» mumkin bo'lsa, Kafkada umuman boshqacha paradokslarni ko'ramiz. Unga Tertullianning quyidagi mashhur fikri namuna bo'lib xizmat qilgan: «Iso Masih chormixga tortildi – uyat emas, illo, bu uyatsizlik. Va Iso Masih o'ldi – bu butunlay aniq, shubhasiz, illo, bu safsata, tuturiqsizlik. Dafn qilingan bo'lsa-da, u tirildi – bu rost, illo, mumkin emas». Umuman olganda, bu paradokslarni, qanchalik harakat qilmaylik, hal qilib bo'lmaydi. Bu absurdning sof timsolidir. Haqiqiy absurd asarda dunyo absurdidir, qonun yo'q degan fikr ta'kidlanadi.

Absurdizm dunyo haqidagi shunday tushunchaki, unga ko'ra, dunyoda barcha qonunlar yo'qolib, birgina bitimlar qolgan, xohlagan narsa haqida kelishish mumkin, masalan, insonni ko'prikka, ko'prikniki esa insonga o'xshatish mumkin («Ko'prik» hikoyati). Fikr, agar inson holatga kiritilmagan bo'lsa, ko'rinishni anglashga oqizlik qiladi («Chetlab o'tayotganlar» hikoyati), ammo kiritilgan bo'lsa, u soddalarcha ochiq-oydin («Evrilish» novellasi qahramoni Gregor Zamza jirkanch hasharotga aylaniy qolganini bilgan bo'lsa-da, ishxonaga borishga intiladi).

Tadqiqotchilar F.Kafka kundaliklaridagi quyidagi fikrlarga e'tiborlarini qaratganlariga ancha bo'lgan: «Barcha narsalar ko'z oldimda qurilma singari namoyon bo'ladi» va «men konstruksiyalarni ovlayman». Istalgan konstruksiyada kombinatsiya yashaydi, shu bilan birga, bu birikmalar real detallardan quriladi («Men sovuq va qattiq edim, men ko'prik edim, men jar ustida yotardim. Bu yoqda oyoq panjalarim yerga kirgan, u yoqda qo'l; men tishlarim bilan qumoq tuproqqa mahkam yopishib olganman. Kamzulimning orqa etagi yon tomonlarimdan osilib turardi. «Ko'prik» hikoyati). Keltirilgan hikoyatda biz «yolg'on birinchi shaxs» deb atash mumkin bo'lgan usulni ko'ramiz, uning mohiyati shundaki, shaxsning o'zigagina xosligi (subyektivlik) kishining ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjudligi (obyektivlik) bilan tenglashtiriladi. Shu sababli shaxs istagan odam bo'lishi mumkin: men, sen, biz, u, Yozef.K, «bobo» va h.k.

Har qanday konstruksiya, ya'ni xomxayol, har qanday hikoyat,

sujet, agar unga ishonishsa, birlik va umumiylikni tenglashtirish sharoitlarida afsonaga aylanadi. Kafka ta'sirining kengligi dunyo qurilishiga bo'lgan yangicha qarashida edi. Uzoqqa bormay (masalan, klassitsizm davriga), Kafkaga zamondosh afsonanavislari ijodiga nazar tashlasak, F.Nitsheda mif qadimgi Sharq aloqalariga (hech bo'lmaganda shaklan, «Zardo'sht tavallosi») borib taqalsa, Z.Freydda mif ruhiyatini ilmiy tadqiq qilish bilan bog'lanadi va h.k. F.Kafkada miflar noan'anaviy, u bevosita na folklor bilan, na mohiyatan va na shaklan diniy an'analar bilan bog'liq emas. Unda har qanday subyektiv holat miflashtiriladi. Aynan shuni diqqatga molik, chunki istalgan joyda ishlash mumkin, har qanday maktabga yaraydi (shaklan hatto realistik maktabga ham).

Kafkaning mifi o'zining alohida mantiqiga ega. Bu aniq boshlanishdan aniq yakun kelib chiquvchi «boshlanish mantiqi» emas; bu qahramonning taqdiri shon-shuhrat yoki sharafsiz yakunlanuvchi, folklorga xos «yakun mantiqi» emas; bu hozirgi lahz o'tmish va kelajakdan muhimroq bo'lgan «lahza mantiqi» emas, bu mif mantiqi, ya'ni boqiy qadriyatlar mantiqi.

Narsalarning mangu holati o'tib bo'lmas makon va harakatsiz vaqt bilan muvofiqlashtiriladi («Jarayon»dagi sud, «Qasr»ning to'liq sujeti): «Bobom ba'zida:

«Hayot naqadar qisqa-ya! Yashab o'tgan umrimni eslar ekanman, barcha narsa ko'z o'ngimdan shunchalik yaqin o'tadiki, qanday qilib yoshgina yigit, aytaylik, qo'shni qishloqqa, baxtsiz tasodifdan cho'chimay, bunday sayr uchun oddiy va hatto baxtli hayot ham yetmasligini aytmasam ham bo'ladi, otliq borishga jazm qiladi» («Qo'shni qishloq» hikoyati). Agar ertakda makon va vaqt o'tkazuvchan bo'lsa, Kafkada buning aksi. Agar ertak qahramonlari o'tkazmas, o'ziga pishiq bo'lsa, Kafkaning qahramoniga qilich sanchilishi mumkin («Qilich» fragmenti), u mudom aynan o'z-o'ziga o'xshashligini yo'qotishi mumkin («Bir kurash bayoni»).

Konstruksiya (tuzilish)larini antiertak deyish mumkin bo'lgan yozuvchi ijodidagi an'anaviy qatlam shu tarzda ochib boriladi. Kafkaning eng yirik muvaffaqiyatlaridan biri hikoya qilishning o'ziga xos uslubi bo'lib, tashqi oddiylikga qaramay, o'ziga ohan-

rabodek jalb qiluvchi, tasavvurni, fikrlarni uyg'otuvchi, uzoq assotsiatsiyalarni qo'zg'otuvchi ushbu uslub sirini, sehrini ochishga ko'plab tadqiqotchilar harakat qildilar. Fikrimizcha, adibning uslubi birlik va umumiylikni uyg'unlashtirishda namoyon bo'ladi, ya'ni u yaxlitlikka teng yagona unurni izlaydi.

Shu yerda yana yozuvchi tomonidan yaxlitlik («Bir kurash bayoni»dan ajratib olingan bosh element – «Daraxtlar» hikoyatiga qaytish o'rinli bo'ladi. Kafkada, Marsel Prustdan farqli o'laroq, alohida ajratib olingan jumla matnning kichik bir zarrasi emas. Oldingi uch jumloqli jumlasiz to'rtinchi jumloqli jumlaning tushunib bo'lmaydi – bu adib uslubiga xos jihatdir.

«Evrilish»ning birinchi jumlasini («Kunlarning birida notinch uyqudan keyin tongda uyg'ongan Gregor Zamza o'z yotog'ida dahshatli hasharotga aylanib qolganligini ko'rdi»)dan o'qib Kafkaning uslubini bilib olish mumkinday tuyuladi. Biroq ko'plab yozuvchilar o'z adabiy ertaklarini shu tarzda boshlashlari mumkin.

Kafkaga Alber Kamyu ta'kidlagan o'ziga xos kuchli taassurotni («Har holda shuni unutmash kerakki, absurd asarlarda yashirin o'zaro ta'sir mantiqiylik va doimiylikni bog'lab turadi») barpo qilish uchun butun boshli bob kerak bo'ladi. Shu sababli kasbi kommissiyajer (*mahsulotlarni reklama qiluvchi agent*) bo'lgan «Evrilish» qahramoni Zamzani hasharotga aylanib qolishida birgina narsa, xo'jayini ishga kelmaganligidan norozi bo'lishi ko'chitadi. Zamzada panjalar va mo'ylabchalar paydo bo'lib, umurtqasi yoysimon egiladi. Albatta, bu uni ajablantirmadi deb bo'lmaydi, aks holda uning evrilishi o'quvchiga ham ta'sir ko'rsatmas edi. Zamza bilan bo'lgan hodisa uni bir qadar bezovta qiladi, xolos. F.Kafkaning butun san'ati ana shu sezilar-sezilmas farqda namoyon bo'ladi.

Agar F.Kafkaning butun ijodini yagona matn sifatida qabul qilish mumkin degan fikr to'g'ri bo'lsa, unda matndagi birliklar («monadlar») nisbatan harakat qilish huquqiga ega. Muallifning «Bir kurash bayoni»dan parchani, «Amerika» romani birinchi bobini alohida, mustaqil asar sifatida chop ettirishi, «Jarayon» va «Qasr» romanlari boblarining o'zni o'zgartirilishi fikrimizga dalil bo'la oladi.

Shoir Artur Rembo so'zlarni noaniq ishlatish orqali poetik ta'sirchanlikka erishishga harakat qilganidek, F.Kafka oddiy so'zlardan foydalanadi, biroq ko'pincha ular o'z o'rnida bo'lmaydi, yozuvchi yozgani kabi so'zlashmaydilar, chunki uning leksikasi oddiy, lekin sintaksisi juda murakkab. Nemislar Kafka qo'llagan oddiy so'zlar o'rniga boshqa, o'riniroq so'zlarni ishlatadilar. Mutaxassislar tomonidan ta'kidlangan kuchli taassurot o'ziga xos uslub yaratish imkoniyatini berdi, so'z unda ma'lum o'ringa ega va bir vaqtning o'zida harakatlanib, o'rnini o'zgartirib turadi – bu Kafkaning uslubi.

Hikoyatlar

Daraxtlar

Illo, biz qishda kesilgan daraxtlar misolimiz. Go'yo ular qorga shunchaki sirpanib tushgan-u, yengilgina turtib yuborilsa, ular o'rnidan qo'zg'oladigandek. Yo'q, ularni qo'zg'atib bo'lmaydi, ular muzlab yerga mahkam yopishib qolgan. Biroq, taassufki, bu shunday tuyuladi, xolos.

Chetlab o'tayotganlar

Tunda ko'cha bo'ylab sayr qilib yurar ekansan va ro'parangdan uzoqlardan ko'ringan odam chopib o'tsa, axir, ko'cha tog' tomonga qarab ko'tarilgan va osmonda to'lin oy boqib turibdi – garchi u zaif qalang'i-qasang'i bo'lsa ham, garchi kimdir ortidan qichqirib quvib kelayotgan bo'lsa ham, sen uni to'xtatmaysan; yo'q, mayli, qayoqqa chopayotgan bo'lsa, chopib ketaversin.

Axir, hozir tun va sening oy nur sochib turishiga, ko'chaning tog' tomonga qarab ko'tarilib borishiga hech qanday aloqang yo'q, balki ular o'z xursandchiligi uchun, ko'ngillarini yozish uchun bir-birlarini quvib yurishgandir, balki ikkovlon uchinchi odamni ta'qib qilishayotgandir, balki birinchi odamning hech bir gunohi yo'qdir va uni behuda ta'qib qilishayotgandir, balki ikkinchisi birinчисini o'ldirmoqchidir va sen qotilikka guvoh bo'lib qolasan,

balki ular bir-birlari haqida hech narsa bilmaslar va har qaysisi o'z uyiga oshiqayotgandir, balki bular oyparast (lunatik)dir, balki birinچisi qurollangandir.

Va nihoyat, sen charchagan bo'lishing, ko'proq vino ichib qo'ygan bo'lishing mumkin emasni? Va sen ikkinчисining ham ko'zdan g'oyib bo'lganidan xursandirsan.

Ko'prik

– Men sovuq va qattiq edim, men ko'prik edim, men jar ustida yotardim. Bu yoqda oyoq panjalarim yerga kirgan, u yoqda – qo'; men tishlarim bilan qumoq tuproqqa mahkam yopishib olganman. Surtugimning orqa etagi yon tomonlarimdan osilib turardi. Pastda gulmohi balig'i bor muzday jilg'a soy shovullardi.

Hech bir sayyohning qadami bu o'tib bo'lmas tik jarliklarga yetib kelmagan, ko'prik hali xaritalarda ham ko'rsatilmagan. Men shunday yotar va kutardim; men ixtiyorsiz kutishga majbur edim. Hech bir ko'prik, agar u qurilgan bo'lsa, qulamaguncha ko'prikligicha qolaveradi.

Bu qaysidir oqshomlarning birida ro'y berdi – bilmadim, yoki birinchi, yoki minginchi oqshomda edi: mening o'y-fikrlarim doim tartibsiz edi, aylana bo'ylab yurardi. Yoz oqshomlarining birida jilg'aning shildirashi pasaydi, shu payt men insonning qadam tovushlarini eshitdim! Yonimga, yonimga... Rostlan, ko'prik, xizmatini bajar, panjarasiz brus (yog'och), senga ishonch bildirganni ko'tar. Uning qadam tashlashida ishonchsizlik sezilmaydi, biroq agar u salgina chayqala boshlasa, nimalarga qodir ekanligini ko'rsatib qo'ya va tog' ma'budi misoli uni narigi tomonga uloqtirib yubor.

U yaqinlashib, meni hassasining temir poynagi bilan taqillatdi, keyin u bilan surtugimning orqa etaklarini ko'tarib, tuzatib qo'ydi. U poynakni mening hurpaygan sochlarimga botirdi, atrofga alanglab qaradi, chamas, uzoq vaqt uni sug'urib olmadi. Keyin xayollarim meni uning ortidan tog'-u vodiylar tomon yeldek uchirib ketgan chog'da – u ikkala oyoqlari bilan gavdamning o'rtasiga sakradi.

Men kutilmagan, dahshatli og'riqdan larzaga kelib, titrab ket-

dim. Kim edi u? Go'dakmi? Arvoلمي? Katta yo'ldagi qaroqchimi! O'z joniga qasd qilgan kishimi? Yo'ldan ozdiruvchimi? Vayron qiluvchimi? Va men uni ko'rish uchun o'girila boshladim. Men burila boshladi! Men qayrilishga ulgurmay qulab tushdim. Men quladim va allaqachon menga hayqirib oqayotgan suvdan har doim ochiq chehra bilan qaragan qirrali, silliq toshlar tomonidan sanchilib, tilka-pora qilib tashlangan edim.

Ko'ylaklar

Bashang, qat-qat taxli, burama hoshiyali va turli-tuman bezakli chiroyli ko'ylak kiygan go'zal qizlarni ko'rganimda, ko'pincha, xayolimga ko'ylaklar o'z ko'rinishini uzoq saqlamaydi degan fikr keladi: taxlari g'ijimlanib ketadi va ularni tekislab bo'lmaydi va hech bir ayol har kuni erta tongdan shomgacha aynan o'sha ko'rkam ko'ylakni kiyishni xohlamaydi, chunki u nochor va kulgili bo'lib ko'rinishdan qo'rqadi.

Biroq men har kuni tabiat in'om etgan niqobda paydo bo'ladigan sarvqomat, kelishgan, nozikbadan va quyuc sochli go'zal qizlarni ko'raman, ular aynan o'sha chehralarini aynan o'sha kaftlariga tirab, oynadagi akslariga qarab zavqlanadilar.

Ammo gohida ular ziyofatdan kech – oqshom o'tib qaytganlarida va ko'zguga nazar tashlaganlarida nogahon ularga hamma ko'rgan, ko'raverib to'ygan va anchayin qartaygan, so'lg'in, solqigan, g'ubor bosgan qiyofa boqadi.

Tog'ga sayr

Bilmayman, – hayqirdim men unsiz, – men axir bilmayman. Modomiki hech kim kelmaypti ekan, demak, hech kim kelmaypti. Men hech kimga yomonlik qilganim yo'q, hech kim yomonlik qilmadi, lekin hech kimsa menga yordam qilishni xohlamaydi. Hech kim, hech kim. Qara-ya, xo'sh, nima bo'пти. Faqat mana hech kim menga yordam bermaydi, bo'lmasa bu Hech kim – Hech kimlar menga hatto juda xush kelardi. Men jon deb, nega endi yo'q der ekanman, bunday Hech kim – Hech kimlar ham-

rohligida sayrga chiqqan bo'lar edim. Shubhasiz tog'ga, yana qayerga bo'lar edi. Ular qancha-yu, ularning bari bir-birlariga yopishadilar, qanchadan qancha oyoqlar va ularning hammasi bir-birlariga taqalib deysinadilar. O'z-o'zidan, barchalari fraklarda.

Mana shunday ketaveramiz, ketaveramiz. Oramizda qayerda tariqcha joy qolgan bo'lsa, barchasidan shamollar o'taveradi. Tog'da nafas olish qanchalar yengil! Bizning hanuz qo'shiq aytmaganimiz esa ajablanarli.

Prometey

Prometey haqida to'rt rivoyat mavjud. Birinchisiga ko'ra, u xoinlik qilib ma'budlarni insonlarga sotgan va shuning uchun Kavkazdagi qoyaga zanjirband qilingan, ma'budlar yuborgan burgutlar esa uning jigarini qayta o'sib chiqishi bilan cho'qib yerdilar.

Ikkinchisiga ko'ra, jigar-bag'ri qon qilingan Prometey burgutlardan qutulish uchun qoyaga tobora chuqurroq tiqilib-singib borgan va oxir-oqibat u bilan butkul qo'shilib ketgan.

Uchinchisiga ko'ra, minglab yillar o'tgan va uning xiyonatini unutganlar – ma'budlar unutganlar, burgutlar unutganlar, uning o'zi ham unutilib yuborgan.

To'rtinchisiga ko'ra, barcha bunday sababsizlikdan charchagan. Ma'budlar charchagan, burgutlar charchagan, charchagan jarohatlar bitib tuzalib ketgan.

Tushuntirilmagan qoyalar qoldilar... Rivoyat tushuntirib bo'lmaydigan mavhum narsalarni tushuntirishga harakat qiladi.

Negizida haqiqat bo'lgan rivoyat chor-nochor mavhum narsaga qaytishga majbur bo'ladi.

Uslubiy ko'rsatmalar

F.Kafka hikoyatlari bo'yicha o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish jarayonida quyidagi uch jiharga e'tibor qaratish lozim.

Birinchisi. Mashg'ulot kursning boshida bo'lgani uchun tayyorgarlikka vaqt kam bo'ladi. Biroq aynan shu jihati bilan ham

juda qulay: Kafka hikoyatlari shu darajada ixchamki, ularni to'g'ridan to'g'ri auditoriyaning o'zida o'qib, tahlil qilish imkoniyati mavjud.

Ikkinchisi. Shuningdek, nazariy ko'nikmalar, birinchi navbatda, «hikoyat» kategoriyasining asoslari va modernizmning o'ziga xos xususiyatlarini bilish zarur.

Uchinchisi. Matnlarning qisqaligi ba'zi talabalarga nemis tilidan olgan bilimlarini qo'llash imkonini beradi.

Janr tavsifi va hikoyatlar talqinidagi murakkabliklarni «Ko'priki» hikoyati misolida ko'rsatish mumkin. U yozuvchining eng mashhur hikoyatlaridan biridir. B.L.Suchkovning «Kafkaning dunyosi» (Кafka Ф. Роман. Новеллы. Пьесы. - М.: Прогресс, 1965) maqolasidagi asar tahlilida quyidagi fikrlarni o'qish mumkin: «Kafkaning «Ko'priki» hikoyati insonlar o'rtasida birdamlik va bir-birini yo'q qilish-quvvatlash ro'yobga chiqarib bo'lmas orzu ekanligini isbotlashga bag'ishlangan asar bo'lib, unda yozuvchi insonni hayotning tubsiz jarliklari ustiga tashlangan ko'priikka o'xshatadi. Kafka boshqa odam o'tayotganda ko'priknii qulab tushishga majbur qiladi, chunki odamlar bir-biriga suyanchiq bo'lishga qodir emas».

Biroq hikoyatni boshqacha talqin qilish ham mumkin. Bu F.Kafkaning adabiyotning eng qadimgi janrlaridan biriga yangicha yondashishi bilan bog'liq. S.S.Averitsev ushbu janrga quyidagicha tavsif beradi: «**Hikoyat** adabiyotning didaktik (pand-nasihati)-allegorik janri bo'lib, asosiy belgilari bilan masalga yaqin turadi. Shaklan undan farq qiluvchi hikoyat: 1) kontekstda yuzaga keladi, shuning uchun unda 2) rivojlangan sujet harakati bo'lmasligi va ramziylikni yo'qotmagan holda qiyoslash soddalashtirilishi mumkin» (Аверитцев С.С. Пьеса. - М.: СЭ, 1987) Hikoyatlar o'z turlanishlarida jahon folklori va adabiy ijodiyotida universal hodisadir. Biroq didaktika va majoziylik intilish kuchli bo'lgan ma'jum madaniy davrlarda hikoyat boshqa janrlar uchun namuna bo'lib xizmat qilgan. O'quvchilar har qanday hikoyani hikoyat sifatida qabul qilgan bunday davrlarda hikoyatning o'ziga xos poetikasi hukmronlik qilgan: tabiat va buyumlar faqat zarur bo'lgandagina eslatilgan, harakat dekoratsiya (tashqi bezak)siz «mövutda» sodir bo'lgan; hikoyatning qahramonlari, odatda, nafaqat tashqi qiyofaga, shuningdek, xarak-

terga ham ega bo'lmagan, ular badiiy kuzatishning obyektini emas, balki etik tanlov subyektini sifatida ko'rsatilgan. XIX asr oxirlarida bir qator yozuvchilar hikoyatni ixchamligi va mazmundorligi uchun o'z ijodlari uchun namuna sifatida qabul qilganlar (L.N.Tolstoy, J.P.Sartre, A.Kamyu, J.Anuy, G.Marsel).

F.Kafkaning hikoyat janriga murojaat qilishini «janr o'yinlari»ning namunasi sifatida qabul qilish mumkin (Лукон В.А. Пропсер Мериме: Изучение системы жанров в творчестве зарубежных писателей. - М.: МГПИИ, 1983).

Sirtidan qaraganda, «Ko'priki» - haqiqiy hikoyat. Biroq muallif hikoyatning asosiy tashqi, janr yasovchi elementlari bilan o'ynashayotgandek, ularni ichkaridan buzadi (vayron qiladi). Allegoriya va istiora «inson ko'priikka o'xshaydi» konstruksiyasidagi o'rta bo'g'inning almashtirilishi hisobiga buziladi. Muqoyasa aynan o'xshashlik bilan almashtirilgan.

Hikoyatda bo'lishi shart hisoblangan didaktizm va axloqiy xulosa shubha ostiga olinadi, chunki Kafka matnlari turlicha, jumladan, qarama-qarshi talqin qilinishi mumkin. Go'yoki aniqlik va lo'ndalik ortiqcha tafsilotlar («qumoq tuproq», «surtugimning orqa etagi», «gulmohi balig'i suzib yurgan muzday jig'a», «hassasining temir poynagi bilan», «hurpaygan sochlarimga») bilan buzilganday. Biroq ular allegorik qiyoslashning o'rmini to'ldiruvchi fantastik o'xshashlik bo'lib, kundalik, odatiy tafsilotlarga aylantirilgani uchun ajablan-tirmaydi - bu Kafka ustubining asosiy belgilaridan biridir.

Yozuvchi sabab-oqibat aloqalari yo'q yoki ularni topish imkonini yo'q darajada bo'lgan badiiy olam yaratishga intiladi. Ushbu g'oyasini amalga oshirish uchun u antiqa badiiy usul qo'llaydi: ehtimoli bor variantlarni sanab chiqadi, bunda: 1) variantlar ko'p; 2) ular yetarlicha erkin, ixtiyoriy, turli-tuman, ba'zan bir-biriga qarama-qarshi; 3) ularning barchasi shubha, ikkilanish ohangida kiritilgan; 4) yozuvchi to'g'ri variantni topishga ko'maklashuvchi yakuniy xulosalar keltirmaydi.

Masalan, «Ko'priki» hikoyatida quyidagilarni o'qiydiz: «Kim edi u? Go'dakmi? Arvohmi? Katta yo'ldagi qaroqchimi? O'z joniga qasd qilgan kishimi? Yo'ldan ozdiruvchimi? Vayron qiluvchimi? Va men uni ko'rish uchun o'girila boshladim...»

Endi «Chetlab o'tayotganlar» hikoyatiga murojaat qilamiz: «Axir, hozir tun va sening oy nur sochib turishiga, ko'chaniy tog' tomonga qarab ko'tarilib borishiga hech qanday aloqang yo'q, balki ular o'z xursandchiligi uchun, ko'ngillarini yozish uchun bir-birlarini quvib yurishgandir, balki ikkovlon uchinchi odamni ta'qib qilishayotgandir, balki birinchi odamning hech bir gunohi yo'qdir va uni behuda ta'qib qilishayotgandir, balki ikkinchisi birinchisini o'ldirmoqchidir va sen qotilikka sherik bo'lib qolarsan, balki ular bir-birlari haqida hech narsa bilmaslar va har qaysisi o'z uyiga oshiqayotgandir, balki bular oyparast (lunafik)dir, balki birinchisi qurollangandir. Va nihoyat, sen charchagan bo'lishing, ko'proq vino ichib qo'ygan bo'lishing mumkin emasmi?»

«Ko'prik» va «Daraxtlar» hikoyatlarini qiyoslab, «janrlar o'yini»da rivojlantirgan yo'nalishni ta'kidlash mumkin. «Ko'prik» hikoyatida endi yechib bo'lmas paradokslar yo'q, biroq bu yerda tasvirlangan butun vaziyatning o'zi aql bilan yechib bo'lmas paradoks sifatida berilgan.

Matn aforizmdan iborat bo'lgan birmuncha erkinlik va paradoksalik bilan lo'ndalik va aniqlikni yo'qotib, tasvir detallari hisobiga oddiylik va doimiylik kasb etganligi sababli absurdning badiiy taassurotni oshiradi.

Yuqorida keltirilgan qiyoslashlar F.Kafkaning boshqa hikoyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, ular XX asr adabiyotining ba'zi xususiyatlarini tushunish uchun o'ziga xos «kalit» vazifasini bajaradi.

Axir, hikoyatga kafkacha yondashishni ko'plab yozuvchilar qabul qilganlar.

Shu bilan bog'liq holda ushbu spetsifik xususiyatlarni belgilash uchun adabiyotshunoslikda sekin-asta o'rinni egallagan «parabola» atamasiga e'tibor qaratsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

«Parabola» (yunoncha *parabole* – o'xshash, qiyoslash) – XX asr nasri va dramasi hikoyatga yaqin janr turini anglatadi.

Ichki qurilishi nuqtayi nazaridan parabola ramzga, ko'pma'noqlikka intiluvchi istiorali obraz bo'lib, ba'zan u «ramziy hikoyat» ham deyiladi. Biroq ramziylikka yaqinlashar ekan, parabola degan istioraviylik unga nisbatan izomorf (bir xillik)ligini yo'qotmaydi.

Paraboladagi tugallanmagan ko'pplanlilik, siyiq ma'nodorlik turli mamlakatlar yozuvchilarini o'ziga jalb qiladi: F.Kafka («Jarayon»), H.Hesse («Biser o'yini»), J.P.Sartr («Iblis va Olloh taolo»), E.Xeminguey («Chol va dengiz»), G.Garsiya Markes («Tanholikning yuz yili»), Abe Kabe («Qumdag ayol»). Atoqli qirg'iz adibi Ch.Aytmatov asarlarida ham parabola yaqinlik borligi adabiyotshunoslar tomonidan ta'kidlangan.

Ta'kidlash joizki, Kafka kichik asarlarining parabola doirasiga ham to'liq tushmasligi yozuvchi ijod qilgan o'tish davri xususiyatlarini aks ettirishi va iste'dodning o'ziga xosligi bilan izohlanadi.

Amaliy mashg'ulot rejasi (1-variant)

1. F.Kafka ijodi XX asr madaniyati kontekstida:
 - a) F.Kafka hayoti va ijodi;
 - b) Kafka va absurdizm.
2. «Janrlar o'yini»da rivojlantirilgan yo'nalish.
3. Kafka uslubi xususiyatlari:
 - a) absurdni qayta tiklash usullari;
 - b) Kafkani o'zbek tiliga tarjima qilishdagi muammolar.

Amaliy mashg'ulot rejasi (2-variant)

1. F.Kafka ijodining XX asr adabiyotidagi o'rni.
2. Kafka va o'zbek adabiyoti.
3. F.Kafka kichik hikoyatlarining janr xususiyatlari:
 - a) Hikoyat tushunchasi. «Daraxtlar», «Chetlab o'tayotganlar», «Ko'prik» asarlarida hikoyatga xos xususiyatlar tahlili;
 - b) Kafka asarlarida hikoyatga xos xususiyatlarning o'zgarishi. Parabola tushunchasi.

Matnlar

- Кafka Ф. Жагаён // Жаҳон адабиёти. 2003. №9, 10, 11.
 Kafka Ф. Жагаён. Роман / В.Файзуллох тар. – Тошкент: Ўзб. Мил. кутубхонаси, 2006.
 Kafka Ф. Роман. Новеллы. Притчи / Сост. Б.Л.Сучков. – М.: Прогресс, 1965.

Кафка Ф. Соч.: В 3-х т. / Сост. Д.В.Затонский. - М.: Худ. лит., Харьков: Фолио, 1994.

Кафка Ф. Дневники. Письма / Предисл. Ю.Архипова. - М.: Ди Дик, 1995.

Himiy-tanqidiy adabiyotlar

Норматов У. Иждокорнинг дахлиз дунёси (Адабий суҳбатлар). - Тошкент: Мумтоз сўз, 2008.

Жўракулов У. Худудсиз жилва (илмий-адабий мақолалар). - Тошкент: Фан, 2006.

Днепров В.Д. Черты романа 20 века (разделы о Кафке). - М.: Сов. писатель, 1965.

Затонский Д.В. Франц Кафка и проблемы модернизма. 2-е изд., испр. - М., 1972.

Затонский Д.В. Австрийская литература в 20 столетии. - М.: Худ. лит., 1985.

Зусман В.Г. Художественный мир Франца Кафки: малая проза. - Н.Новгород: ННГУ, 1996.

Никифоров В.Н. Кафка, Франц // Зарубежные писатели. Библиогр. сл-рь. - М.: Просвещение, 1997.

Referat va ma'ruzalar uchun mavzular

1. Hikoyat va masal: umumiylik va o'ziga xoslik (matnlar tahlili).
2. F.Kafka hikoyatlarining badiiy dunyosi.
3. «Jarayon» romani: sarlavha semantikasi, ayb va jazo muammosi.
4. «Evrilish»: Shaxsning begonalashishi g'oyasi va Gregor Zamza obrazini yaratish tamoyillari.

3-MAVZU. H.HESSE (1877 - 1962) Intellektual romanda insoniylik va qadriyatlar muammosi



H.Hesse - turli ilmiy maktab va oqim vakillari bo'lgan tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga jalb qilgan XX asr adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri.

XX asr adabiyoti tarixida bu kabi ajoyib qalam ustasi, inson ruhiy olamining eng tubigacha kirib borib, uning murakkab qiralarini yuksak mahorat bilan ocha bilgan, qahramonning ma'naviy poklanishi va olam bilan uyg'unlashuvdagi azobli yo'lni ustalik bilan tasvirlagan adib kamdan kam uchraydi. Nobel mukofoti (1946) va qator adabiy mukofotlar sovrindori H.Hessening ijodi XX asr birinchi yarmi adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. U ko'plab roman va qissalar, hikoya hamda ertaklar muallifi. Ijodiy merosidan she'riy to'plamlar, o'nlab taqrizlar, ajoyib va nozik esselar, minglab maktablar o'rin olgan Hesse o'z ijodini tahlil qilgan maktublarning birida quyidagilarni ta'kidlaydi: «Mening barcha poetik asarlarim an'analarsiz, hech qanday maqsadni ko'zlamay yozilgan. Biroq endilikda ularning umumiy ma'nosini izlash kerak bo'lsa, albat, uni topish mumkin: «Kamensid»dan «Cho'l bo'risi» va «Izof Knex»gacha bo'lgan barcha asarlarimni shaxs, individning himoyasi, ba'zida esa najot so'rab qilingan faryod deb talqin qilish mumkin. O'z imkoniyati va merosi, iste'dodi va qiziqishlari bilan noyob va betakror, nozik va mo'rt bo'lgan har bir inson himoyaga muhtoj». San'atkor Hesse o'z vazifasini mana shunda deb hisoblaydi. Adib har bir shaxsning nozikligi va o'ziga xosligini erta anglab yetdi, insonlarga bo'lgan bunday munosabat unda yoshligidan shakllandi.

Hermann Hesse 1877-yili Shvabiyaning Kalve shaharchasida filologlar va ilohiyot mutaxassislari oilasida dunyoga keldi. Yozuvchining bobosi Hermann Gundert uzoq yillar Hindistonda yashagan va Sharqqa ixlosi baland bo'lgan. U yigirma yil Malabarda

missioner bo'lib xizmat qilgan, pietizm g'oyasiga qiziqqan, hayotining katta qismini indologiyaga bag'ishlagan. Iqtidorli lingvist bo'lgan Gundert o'ttizta tilni bilgan, Injilni malayam tiliga tarjima qilgan va malayam-ingliz tillari lug'atini tuzgan.

Kitobga bo'lgan otashin havas ham Hessega bobosidan meros bo'lib o'tgan. Vataniغا qaytgach, Gundert nashriyot uyushmasini boshqardi, o'z uyini esa ulkan kutubxonaga aylantirdi. «Sehrgarning bolaligi» esesida Hermann Gundert «oppoq soqolli, hamma narsadan voqif va har narsaga qodir muhtaram mo'ysafid» sifatida tasvirlangan. Yozuvchi ushbu insonga bo'lgan shaxsiy munosabatini quyidagi so'zlar orqali ifodalaydi: «Men uni sevar, hurmat qilardim, undan har narsani kutish mumkin bo'lgani uchun qo'rqardim. Men uning qo'lidan hamma narsa keladi deb hisoblardim va undan tinimsiz o'rganardim. Men ko'ngil tubida saqlanuvchi barcha sir-sinoatlar undan, aql bovar qilmaydigan insondan boshlanishini bilardim».

Hessening shaxs sifatida shakllanishi va butun ijodiy hayotida katta ta'sirga ega bo'lgan ikkinchi shaxs uning onasi Mariya Hesse (Gundert) bo'lgan. Mariya Hesse o'g'li xotirasida nafaqat Kalvedagi g'aroyib uyning birinchi qavatida joylashgan ajib bir dunyoning yagona va to'laqonli bekasi bo'lib, shuningdek, saxovatli va talabchan ona, jo'shqin va ta'sirchan inson sifatida qoldi. Besh tilda so'zlasha otadigan Mariya ajoyib hikoyachi sifatida nom qozongan, she'rlar bitgan va ikkita kitobini nashr ettirgan.

Yozuvchining otasi Iohannes Hesse o'g'liga ona tilining go'zalligini va jozibasini singdirdi. Hesse shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ikkinchi omil uning vatani edi. Yozuvchining yoshlik va o'smirlik yillari kechgan Shvabiya Germaniyaning eng so'lim go'shalari joylashgan ajoyib o'lka hisoblanadi. Sokinlik va she'riyat nafasi mavj uradi bu yerda. Shvabiya dunyoga E.Merike, Shiller, Gelderlin, Schubart, Gauf, Uland kabi shoir-u yozuvchilarni tuhfa etdi.

Hesseni bolaligidan o'ziga rom etgan uchinchi sehri kuch - bu kitob edi. «Kitob sehri» esesida yozuvchi: «Tabiat tomonidan in'om etilmagan, lekin insonning ruhidan barpo etilgan kitoblar dunyosi - eng buyuk ne'matdir», - deb yozgan edi. Hesse bu

g'aroyib va cheksiz olam labirintlari bo'ylab sayohatini juda erta boshladi. Bolaligidan qolgan eng yorqin xotiralaridan biri ota-onasining kutubxonasi bo'lib, unda dunyoning ko'plab tillarida nashr qilingan kitoblar mavjud edi. Oilada kitoblarga qiziqish vaqt o'tkazishdan ko'ra kattaroq narsani anglatardi. Hesse kitoblar olamini «barcha xalqlarning barcha davrlardagi ruhi kezb yuruvchi, minglab zallari bor ma'naviy qasr» sifatida qabul qilard edi. U o'zining hayotini ana shu qasrga xizmat qilishga bag'ishladi.

Zamondosh yozuvchilar bilan doimiy muloqotlar Hesse uchun katta ahamiyat kasb etdi. U R.Rollan va T.Mannlar ijodini yuqori baholar, ular bilan do'stona munosabatda edi. F.Kafkani XX asrning eng buyuk so'z ustasi deb bilardi.

Adabiyotga juda erta kirib kelgan Hessening ilk she'riy mashqlari besh yoshida yozilgan, o'n uch yoshida esa o'zi uchun shoirlikdan o'ziga yo'l yo'qligiga amin bo'ldi. Adibning birinchi «Ikki aka-uka» hikoyasi 1887-yili yozilgan, 1889-yili nashrdan chiqqan «Romantik qo'shiqlar» she'riy to'plamidan keyin esa keng kitobxonalar ommasiga tanildi. Jahon adabiyoti tarixida avvalo epik asarlar muallifi sifatida nom qoldirgan H.Hessening birinchi romani «Kamensid» 1904-yili chop etilirdi. Asarda XX asrning shaxs hayotiga bostirib kirishi, insoniyatni o'zi o'rnatgan qonun-qoidalarga amal qilib yashash huquqidan mahrum etgan shafqatsiz davr sharoitida san'atkorning shakllanishi asosiy mavzu qilib olingan. Ijodining ilk davrida ushbu muammoga qayta-qayta murojaat qilishi muallifning nemis romantiklari, birinchi navbatda, Novalis an'analarni davom ettirganligidan dalolat beradi.

H.Hesse va romantik yozuvchilar asarlarining tipologik yaqinligini deyarli barcha tadqiqotchilar ta'kidlaydilar. Yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubi 1919-yili yozilgan «Domian» romanida yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi. Insonning ruhiy olamiga chuqur kirib borish, insoniylik g'oyalari iskanjaga olingan paytlarda ham shaxsning o'zligini saqlab qolish huquqini himoya qilishdagi matonat - «Domian» o'quvchilari qalbini rom etdi.

Jahon adabiyoti kutubxonasi

Biror maqsad yo'lida tahsil ko'rish hali haqiqiy ta'lim bo'lmaydi. Kamolot yo'lidagi har qanday intilish singiri haqiqiy ta'lim o'z-o'zicha ham teran mazmunga ega. Jismonan baquvvat, epchil va kelishgan bo'lishga intilishdan maqsad – badavlat bo'lmoq, shon-shuhrat nurlariga burkanib yashamoq, cheksiz qudrat sohibi bo'lmoq emas. Biroq bu intilish tufayli bizning hayotga muhabbatimiz yanada ortadi, biz yanada shodmonroq va masrurroq bo'lib qolamiz, o'zimizni sog'lomroq his qilib, turli xil tajovuzlardan yaxshiroq himoyalangan deb bilamiz. Xuddi shunga o'xshash «ta'lim»ga, ya'ni ma'naviy va ruhiy barkamollikka intilish – allaqanday mahdud bir a'molga olib boradigan iztirobli yo'l emas, balki ongimizning kengayishini mustahkamlaydigan quvonchli hodisadir <>

Ana shunday ta'limga olib boradiganlar ichida eng muhimi – jahon adabiyotini o'rganishdir, ko'pgina xalqlarning yozuvchilari va mutafakkirlari asarlari ichida bizga o'tinishdan tuha bo'lib qolgan fikrlar, hikmatlar, tajriba, ramzlar, xayollar va a'mollarning hududsiz xazinasini izchilik bilan bobma-bob o'zlashtirishdir. Bu yo'l nihoyasizdir, hech kim hech qachon uning poyoniga yetolmaydi, hech kim hech qachon, butun insoniyat yaratgan adabiyotni qo'ya turaylig-u, loqal yuksak madaniyatli birgina xalq yaratgan adabiyotni o'rganib tagiga yetolmaydi. Lekin birinchi darajali biron mutafakkir yoki adib ijodining mag'zini chaqish – bu insonning o'zligini namoyon etishdir, qalashib yotgan o'lik ma'lumotlarga daxldor bo'lishdan emas, balki jonli ong va ruhga hamnafas bo'lishdan tug'iladigan masrurlik tuyg'usidir. Biz uchun imkon qadar ko'proq o'qish va uqish muhim bo'lmisligi kerak, balki durdona asarlarni bemaol, erkin va o'zimizga ma'qul tarzda tanlay olishimiz hamda bo'sh vaqtlarimizda butun vujudimiz bilan ularga berilib, ulardan haqiqatni idrok etishda inson naqadar buyuk ko'lamlar va teranlikka erishganini tasavvur qilish muhimdir. <>

Jahon adabiyotining muhtasham galereyasi har bir odamning nigohi qarshisida ochiq va hech kim uning boyligidan cho'chimasligi kerak, chunki bu o'rinda miqdorning ahamiyati

yo'q. Shunday kitobxonlar borki, ular butun umrlari bo'yi o'n-o'n beshta kitob bilan kifoyalanaдилar. Shunga qaramay, ular haqiqiy kitobxonlardir. Boshqa toifa kitobxonlar bor – ular hamma narsani o'qiganlar va istagan narsa haqida gapira oladilar, lekin, baribir ularning mehnatini zoye ketgan deb hisoblasa ham bo'laveradi. Negaki, ta'lim degani shunday narsadirki, u ta'lim oladigan yoki ta'lim beradigan kimsani, ya'ni xarakterni, shaxsni ham taqozo qiladi. Qayerdiki ular bo'lmasa, ta'lim berilsa-yu, ta'lim oladigan odam bo'lmasa, ta'lim go'yoki havoga ketayotgandek bo'lsa, xudo yorlaqaganda faqat bilim maydonga keladi, lekin muhabbat tug'ilmaydi, hayot yuzaga kelmaydi. Muhabbatsiz mutolaa, hayratsiz bilim, qalbsiz ta'lim – ruh qarshisidagi eng og'ir gunohlardir.

(O.Sharafiddinov tarjimai)

«Cho'l bo'risi» romani: olam va inson modeli

«Har bir inson – bu faqatgina uning o'zi emas. Shu bilan birga, u olamning turli ko'rinishlarining favqulodda, betakror, o'ziga xos muhim nuqtasi ham. Hamma narsa faqat bir marta sodir bo'ladi va hech qachon qaytarilmaydi. Shu sababli har bir insonning tarixi muhim, favqulodda, mangu, shuning uchun har bir odam yashar va tabiat qonuniga bo'ysunar ekan, bu e'tiborga loyiq va g'aroyib hodisadir», – deb yozadi adib. «Cho'l bo'risi» (1927) romani insoniylik, qadriyatlar oyoqosti qilingan asrda yashashga mahkum inson taqdiriga bag'ishlangan. Roman avtobiografik xarakterga ega bo'lib, unda H.Hessening XX asr birinchi choragidagi ma'naviy tushkunlik davri ifodasini topgan. Inqirozdan chiqish yo'llarini izlagan yozuvchi Z.Freyd va K.G.Yungning ruhiy tahlilga oid tadqiqotlarini o'rgandi, F.M.Dostoyevskiyning asarlarini o'qidi, «Nemis ruhiyatining mumtoz asri. 1750 – 1850» antologiyasini nashrga tayyorladi.

Hessening Dostoyevskiyga bag'ishlangan «O'smir» (1915), «Aka-uka Karamazovlar yoki Yevropaning botishi» (1919), «Dostoyevskiyning «Telba»si haqida mushohadalar» (1919), «Dostoyevskiy haqida» (1925) maqolalarida hayotdan qoniqmas-

lik, kelajakka umidsizlik kayfiyati sezilsa, 1926-yili chop etilgan «Inqiroz Herman Hesse kundaligidan parcha» she'riy to'plamida bunday kayfiyat yanada yaqqolroq namoyon bo'lgan.

«Cho'l bo'risi» romanida adib so'z yordamida ruhiy inqirozdan chiqishga, o'z-o'zini shafqatsiz tahlil qilish orqali XX asr kishisining kasalligi sabablarini aniqlashga va uni davolash yo'llarini topishga harakat qildi.

Yozuvchi asarga yozilgan so'ngso'zida: «Tabiiyki, kitobxonga hikoyamning mazmunini qanday tushunish kerakligini o'rgatmoqchi emasman, buni xohlamayman ham. Kinga nima kerak va zarur bo'lsa, shuni olsin. Shunga qaramay, o'quvchilarning aksariyati «Cho'l bo'risi» kasallik va inqirozni aks ettirsa ham, bu dardning oqibati o'lim bilan emas, aksincha, shifo bilan yakunlanishiga e'tiborlarini qaratishlarini xohlar edim», – deb yozadi.

Asarning arxitektonikasi katta o'lim va kichik dunyoning turli-tuman ziddiyatlarini, ular o'rtasidagi mustahkam aloqalar va murakkab munosabatlarni aks ettiradi.

Tadqiqotchilar «Cho'l bo'risi»ni intellektual roman deb hisoblaydilar va T.Manning asarlari bilan hamohangligini ta'kidlaydilar. Qaysidir ma'noda bu haqiqatga yaqin. Shuningdek, Garri Gallinger hayoti haqida hikoya qiluvchi ushbu asarni gumanistik roman gatoriga qo'shish mumkin, chunki unda shaxs va madaniyat olamining betakror ekanligi haqidagi g'oya izchillik bilan singdirib boriladi. Yozuvchi XX asr boshlarida Yevropa sivilizatsiyasini larzaga solgan davrga moslasha olmayotgan insonni badiiy anglash uchun «ieharidan tahlil qilish» yo'lini tanladi. Yozuvchi romanga kundalik traktatni singdirib yuboradi, qahramonga, dunyoga baho berishda polifoniya usulidan keng foydalanadi. Natijada «qandaydir qonunlar majmuasi bilan boshqarilmaydigan, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va jaholat, nur va soya chegaralanmagan dunyoda yashovchi insonning ulkan, golografik portreti chiziladi» (Гессе Г. О Жан Поле // Гессе Г. Писма по кыру. – М., 1987).

XX asr kishisi – bu ulkan madaniy merosni o'zlashtirgan va jamlagan, uni ijtimoiy va ma'naviy inqiroz sharoitida o'ziga xos tarzda qayta ishlab talqin qilgan shaxs. Balki romanning ajoyib ta'sir kuchini aynan mana shu bilan izohlash o'rindir.

Asarning so'nggi satriari – bu kulgining qaytishiga va boqiyalar bilan uchrashishga umid so'zlari, bu qachonlardir kulishni qayta o'rganish uchun «yana ko'p marta ichki «men»idagi jahannamdan o'tishga tayyorligi ifodasidir».

«Sog'lom, aqli raso, es-hushi joyida bo'lgan boshqa odamlar uylariga kelganda onasi yoki oilasi, bolalari, xizmatkorlari, itlari, mushuklari kutib olishganidek, meni bu yerda, nomigagina vatan bo'lgan makonimda, oromkursi va pechka, siyohdon va rassomlar qutichasi, Novalis va Dostoyevskiy kutishardi. Ho'l bo'lib ketgan paltoni yechishim bilan kichkina kitobcha qo'limga ilindi. U yuqqagina, yomon qog'ozga yomon qilib bosilgan, «Yanvar oyida tug'ilganlar uchun» yoki «Sakkiz kun ichida qanday qilib yigirma yoshga yasharish mumkin?» qabilidagi yarmarkalarda sotiladigan kitobcha edi.

Biroq oromkursiga joylashib o'tirib, ko'zoynagimni taqib, kitobchani qo'limga olgandim, uning muqovasidagi sarlavhani o'qib g'oyat ajablandim, taqdir, qismatim bilan bog'liq his-tuyg'ular miyamga shiddat bilan urildi: «Cho'l bo'risi haqida traktat. Har kim uchun emas».

Kitobchani bir o'tirishda sahifama-sahifa zo'r qiziqish bilan o'qib chiqdim. Asar mazmuni quyidagicha edi:

Cho'l bo'risi haqida traktat

(Faqt jinnilar uchun)

Bor ekan-da, yo'q ekan, Harri ismli Cho'l bo'risi bo'lgan ekan. U ikki oyoqda yuradigan, ust-bosh kiyadigan Inson bo'lish bilan birga Cho'l bo'risi ham ekan. Odamzod o'z aqli, fahm-farosati bilan nimaniki o'rganishga qodir bo'lsa, shunchalik ko'p narsani o'qib-o'rgangan, esli-hushli odam bo'lgan ekan. U birgina narsani, u ham bo'lsa: o'zidan, o'z hayotidan mamnun bo'lishni o'rganolmagandi. Yo'q, bu uning qo'lidan kelmasdi. U domangir inson edi. Buning sababi balkim shu bilan bog'liq ediki, u o'zini hamisha yuragining tub-tubidan umuman, hech qachon inson emas, balki cho'l'dan kelib qolgan bo'ri deb bilardi (yoki shunday deb ishonardi). Aqlli odamlar uning haqiqatan ham bo'ri bo'lganligi

yoki balki tug'ilmadan oldin sehr-jodu bilan bo'ridan insonga aylantirilgan bo'lishi mumkinligi yoki bo'lmasam u inson bo'lib tug'ilgan-u, biroq vujudi cho'l bo'risiniki qilib yaratilgan yoxud u haqiqatan ham bo'ri degan tushuncha-ishonch faqatgina uning o'y-xayoli, kasalligi mahsuli ekanligi xususida bahs-munozaralar yuritishni yaxshi ko'rishadi. Misol uchun, bu odam bolaligida bir oz yovvoyi, bevosh va betartib bo'lgan bo'lishi, murabbiylari uning vujudidagi yirtqich maxluqni o'ldirishib, ongiga shunday bir tasavvur, o'y-xayol va ishonch urug'ini sepgan bo'lishlari mumkin: sen aslida yirtqich, gazandasan, faqatgina ustingga tarbiya va odamzod bolasining yuqqagina g'iloifi sirilgan. Bu haqda uzoq gapirish, qizg'in bahslashish, hatto kitoblar ham yozish mumkin, biroq bundan Cho'l bo'risiga zarracha naf yo'q, chunki bo'rilik uning vujudiga sehr-jodu, afsun bilan singdirilganmi yoki urib, qoqib kirgizilganmi, yo bo'lmasam faqat tasavvur mahsulining o'zginasimi, bu unga baribir edi. Boshqalar bu haqda nima deb o'ylashlari-yu, uning o'zi bu haqda qanday fikrda bo'lishi mumkinligining ham sariq chaqalik ahamiyati yo'q - bu bilan Bo'ri uning tanasidan mana men deb tashqariga chiqib qo'ya qolmasdi-da.

Shunday qilib, Cho'l bo'risida insoniylik va bo'rilik xususiyatlari mujassam edi. Bu uning qismati edi va bu qadar g'ayrioddiy hamda kamdan kam uchraydigan qismlardan emasdi deyish mumkin. Ne-ne zamonlardan buyon qanchadan qancha odamlar o'tgan, ba'zi birlari ko'proq itga yo tulkinga, baliqqa yoki ilonga o'xshash bo'lishgan. Bu xususiyatlar ularning o'zlariga zarracha qiyinchilik tug'dirmagan. Bunday odamlar vujudida bir paytning o'zida inson va tulki, inson va baliq yonma-yon yashagan, ular bir-birlariga ozor yetkazishmagan, aksincha, hattoliki bir-birlariga yordam qo'lini cho'zishgan. Ishi yurishgan, muvaffaqiyat qozongan, ko'pchilik havas qiladigan ba'zi bir odamda, buni qarangki, o'sha baxt-saodatga erishgan insonning o'ziga qaraganda tulki yoki maymun ko'proq bo'lar ekan. Bu endi har bir kishiga ma'lum narsa. HARRIDA esa butunlay buning aksi edi, unda inson va Bo'ri yonma-yon yashar, biroq ular bir-birlariga kamdan kam yordam berishar, aksincha, bir-birlari bilan doimiy xusumat, ashaddiy dushmanlik munosabatida bo'lishardi. Bir jon, bir tan bo'laturib,

ikkovlon bir-biriga dushman bo'lsa, bundan yomoni yo'q. Albatta, har kimning o'z taqdir-qismati bor, bu yo'lda esa hech kimga oson tutib bo'lmaydi.

Bizning Cho'l bo'rimizda holat shunday ediki, u o'zining hissiyoti ichra, barcha aralash jonotlarda bo'lganidek, dam bo'ri bo'lib, dam inson bo'lib yashardi. Biroq shuni bor ediki, u bo'rilik paytida uning vujudida odam hamisha hushyor, sergak va ogoh turar, u inson bo'lgan paytda esa bo'ri xuddi shunday harakat qilardi. Masalan, Harri inson sifatida go'zal fikrga, olijanob hissiyotga ega bo'lgan yoki biror ezgu ish qilayotgan paytda uning vujudidagi bo'ri tishlarini irjaytirib, berahm, qahrli, maskaraomuz kulgi bilan bu barcha olijanob xatti-harakatlar Cho'l yirtqichiga naqadar kulgili tuyulishini bildirguchi edi. Bu bo'ri o'zining ko'ngli nima tusashini yaxshi bilardi, chunonchi, unga cho'lma-cho'l izg'ib, vaqti-vaqti bilan qon so'rib tursa-yu, urg'ochi bo'ri ketidan quvish bo'lsa, bas - shunday bo'lgandan keyin albatta insonning har bir xatti-harakati bo'ri nazdida o'ta kulgili, xijolatli, ahmoqona va takabburona, quruq bo'lib qolardi. Harri o'zini go'yo bo'ri his qilib harakat qilgan, tishlarini g'ijirlatib, barcha insonlarga ularning aldanchi, soxta va aynigan odat, qiliq hamda muomalalariga nisbatan o'zida dushmanlik va nafrat tuygan paytda ham xuddi shunday bo'lar edi. Bunday damlarda undagi inson sergak bo'lar, Bo'rini kuzatar, uni mol, hayvon deb so'kar, uning sodda, sog'lom va yovvoyi bo'rilik vujudidagi butun quvonchiga raxna solar va zaharlardi.

Xullas, Cho'l bo'risi shunday yaralgan edi. Endi Harrining u qadar bama'ni va baxtiyor hayot kechirmaganligini tasavvur etish qiyin emas. Biroq bu uning shu darajada, butunlay bebaxt bo'lganligini bildirmasdi (garchi uning o'ziga ham o'z chekiga tushgan qiyinchiliklar shunday tuyulgan bo'lsa-da). Bunday gapni esa hech qaysi bir inson haqida gapirib bo'lmaydi. Kimningdir vujudida bo'ri bo'lmagani bilan, baribir u baxtli bo'lavermaydi-da. Eng bebaxt, baxtiqaro hayot ham o'zining quvonchli, yorug' kunlariga, go'yo qum bilan tosh o'rtasidagi kichik-kichik baxt, omad gullariga egadir. Cho'l bo'risi bilan ham shunday bo'lgandi. Ko'p hollarda u o'ta baxtsiz edi, buni inkor etib bo'lmaydi, u boshqalarni ham, agarda ularni, ular esa uni sevishgan taqdirda,

baxtsiz qila olardi, chunki uni sevib qolganlarning barchasi uni bir tomonlama ko'radilar, xolos. Ba'zilar uni ajoyib, aqlli va o'ziga xos inson sifatida yaxshi ko'radilar, shunda to'satdan uning bo'riligi tutib qolgach, dahshatga tushib, hafsalalari pir bo'lardi. Ular shunday qilishga majbur edilar, chunki Harri har bir mavjudot singari butunlay sevimligni istardi va aynan shunga uchun u ularning oldida, ya'ni mehr-muhabbatlari bilan unga ahamiyatli bo'lgan odamlar oldida, o'zining bo'ri ekanligini yashirolmadi, ularni a'lday ham olmasdi. Qo'iversa, shundaylar ham bo'lardiki, ular undagi bo'rini, ozod, yovvoyi, sarkash, xatarli va kuchli bir vujudni, yaxshi ko'radilar, biroq qo'qqisdan yirtqich, beshafqat bo'ri odamga aylanib qolib, yana ezgulik va mehribonlikni sog'ina boshladi, yana Motsartni tinglab, she'rlar o'qiy boshladi, insoniyat a'mollariga ega bo'lishni xohlab qolsa, ular endi undan shunaqayam ixloslari qaytar va o'ta ayanchli holatga tushib qolardilar. Xuddi ana shundaylar ko'pincha undan o'ta darajada ko'ngillari qolib, darg'azab bo'lishar, Cho'l bo'risi o'zining ikkiyoqlamatligi-yu ikkiyuzlamachiligini, ixtilof-u ziddiyatlarini o'zidan mutaassir bo'lgan boshqa birovlarining taqdir-qismatlariga ham shu tariqa olib kirardi.

Kimki agar Cho'l bo'risini va uning ayanchli, nochor va ziddiyatli hayotini yaxshi bilaman desa, yanglishadi, chunki u hali ko'p narsani bilmaydi. U bilmaydiki (istisnosiz qo'ida bo'lmaganidek, bir gunohkor banda ma'lum sharoitlarda to'qson to'qqiz taqvodordan ko'ra xudoga yaqinroq bo'lib qolishi mumkin), Harrida ham istisnoli hollar va omadli imkoniyatlar ko'p bo'lgan. U dam bo'ri, dam inson bo'lib ozod, tinch va betashvish yushab fikr yuritgan, ilkkovlon goh-gohida sanoqli soatlardagina murosaga kelib, bir-biriga mehr-muhabbat sog'ingan, bunday paytlarda biri uxlassa, biri bedorgina bo'lmagan, balki ilkkovlon bir bo'lib ikki baravar kuch-qudratga ega bo'lgan. Bu insonning hayotida ham, butun olamda bo'lganidek, ba'zan barcha odatdagi, ko'nikib ketilgan kundalik turmush, ma'lum va muntazam, doimiy, o'zgarmas narsalarning ma'nisi bir soniyalik tanaffusdek tuyulib, favqulodda narsalarga, mo'jiza va rahm-shafqatga yo'l bo'shatayotgandek ko'ringan. Endi mana shu qisqa, onda-sonda bo'lgan baxtli damlar Cho'l bo'risining og'ir qismatini tekislab, to'ldirib, yengillatgan, qo'iversa, baxt va omad

hamda azob va iztirob pirovardida baravariyashib, hattoki qisqa, biroq kuchli baxt-omad o'sha barcha azob-uqubatlarni o'ziga olib, singdirib, afzal bir ustunlikni hosil qilgani, bu endi bir masalanim, bu xususda bekorchi odamlar xohlaganlaricha o'ylab, fikr yuritib, mulohaza qilib ko'raveradilar. Cho'l bo'risi ham ko'pincha bu haqda o'ylab, mushohada qilib ko'rar, biroq bu uning bekor va besamar o'tgan kunlari hisoblanardi.

Shu o'rinda yana bir narsani aytib o'tish lozim. Harrida o'xshagan odamlar juda ko'plab topiladi, ko'plab san'atkorlar ham xuddi shu toifaga mansubdir. Bu odamlarda ikki dil, ikki tabiat mavjuddir, ulardagi ilohiylik va shaytoniylik, ona va ota qoni, baxt-omad va azob-iztirobga qodirlik Harridagi bo'ri va inson bir-biriga shunday dushmanlarcha, betartib, chigal va tumtaroq bog'lanib ketgan. Bunday odamlarning hayoti o'ta behalovat bo'ladi, ular gohida, o'zlarining kamdan kam baxtiyorlarida, shunaqangi qudratli va ta'rifga sig'maydigan go'zal voqealarni boshidan kechirishadiki, bir lahzalik baxt-omad ko'pigi ko'zni qamashtirarli darajada qaynab chiqib, iztirob dengizi qirg'oqlaridan toshib ketadi va bu qisqa chaqnan baxt-omad boshqalarga ham ta'sir qilib, ularni maftun etadi. Barcha o'sha san'at asarlari ham shu tariqa o'tkinchi, qimmatbaho baxt-omad ko'pigi yanglig' vujudga keladi va bu asarlarda yolg'iz, tanho iztirob chekayotgan inson biror soatga bo'lsa-da o'z taqdiri uzra o'zini shu qadar yuksak namoyon etadiki, uning baxti yulduz bo'lib choraqlaydi va buni ko'rib turganlarning barchasiga bu narsa abadiyatdek tuyuladi, o'zlarining baxt-omad, orzulari ham ro'yogba chiqayotgandek ko'rinadi. Bunday insonlar o'z asarlari va xatti-harakatlarini qanday xohlashsa shunday atayversinlar-u, biroq ularida umuman hayot degan narsaning o'zi bo'lmaydi, bu degani, ularning turmushida hayot asari ko'rinmaydi, ular endi hakamlar, hakimlar, etikdo'zlar yoki muallimlar singari qahramonlar yoki san'atkorlar yoxud mutafakkirlar emas, balki ularning hayoti abadiy azob beradigan g'imir-g'imir harakat va shovqin-surondan iborat, baxtsizlik va iztirobga to'la, dahshatli va bema'ndirlik, toki xuddi shunday hayot betartibliklari uzra porlab turgan, xuddi o'shanday kamdan kam sodir bo'ladigan kechinmalar, faoliyatlar, fikrlar va asarlardan or-

tiq ma'no izlamay qo'yarlar. Bunday toifadagi insonlar o'rtasida balki butun inson hayoti xato, Momo Havoning omadsiz zot-zuriyotlaridir, tabiatning o'ngidan kelmagani, amalga oshmagan, ro'yobga chiqmagan yovvoyi va dahshatli urinishidir, harakatidir degan shunday bir xavfli va qo'rqinchli fikr paydo bo'lgan. Ular orasida yana bir boshqa fikr ham mavjuddirki, go'yo inson ehtimol nafaqat chala-yarim, yarim-yorti ongli hayvon, balki xudo farzandi ham bo'lib, boqiy abadiy yashashlikka yaratilganidir.

Har bir inson zoti o'zining belgilari, o'z ovozi, o'z fazilat va illatlariga, kechirilmas gunohlariga ega. Cho'l bo'risining o'ziga xos belgisi esa shu ediki, u kechquruning odami edi. Erta tong payti uning uchun yomon palla hisoblanar, undan o'ta qo'rqar va unga hech qachon yaxshilik keltirmasdi. Hayotining ertalabki chog'larida u hech qachon mundaq xursand ham bo'lmagan, tushgacha bo'lgan pallalarda u hech qachon ezgu ish qilmagan, miyasiga yaxshi fikr ham kelmagani, o'ziga va boshqalarga ham shodlik ulashmagan. Tushdan keyingina u asta-sekin o'ziga kelar, tirilar, kech tushganda esa uning chehrasi yorishib, ba'zan yashnab ketar, xayrli, savob ishlarini so'zshinlik bilan davom ettirardi. Undagi yolg'izlikka va mustaqillikka bo'lgan ehtiyoj ham xuddi shu narsa bilan bog'liq edi. Hali hech bir inson zoti o'zida mustaqillikka uningchalik chuqur, ehtirosli ehtiyoj sezmagani. Yoshlik chog'larida, hali u kambag'al va bir burda nonni qiyinchilik bilan topib yurgan paytlaridayoq, bir bahyagina mustaqillikni saqlab qolish ilinjida och qolishni, eski, juldur kiyim kiyib yurishni afzal ko'rgan. U hech qachon pulga va farovon hayotga, ayollarga va kuyalilarga sotilmagan, o'zining erkinligini saqlab qolish uchun, kerak bo'lsa, yuz martalab barchaning ko'z o'ngida o'z foydasi va baxtidan kechib yuborgan. Biror vazifada, lavozimda ishiab, kun va yil bo'linishiga rioya qilish hamda boshqa birovlariga bo'ysunishdan ham ko'ra dahshatliroq va jirkanchliroq tasavvur yo'q edi uning uchun olamda. Idora, ishxona, muassasa uning uchun o'limdek nafratlanarli edi, u tushida ko'rishi mumkin bo'lgan birdan bir eng dahshatli narsa — kazarmada hibsga olinish edi. Barcha bunday vaziyatlardan u, ko'pincha katta qurbonlar berib bo'lsa-da, o'zini ustalik bilan olib qochardi. Uning kuch-

qudrati va fazilati shunda edi, xuddi shuning uchun u bukilmay va sotilmaydigan, vijdonli odam edi, shuning uchun uning irodasi mustahkam va to'g'ri chiziqli edi. Xuddi shu himmat-saxovat bilan uning iztirobli qismati chambarchas bog'langandi. Uning ahvoli-rubiyasi ham barchaniki qanday bo'lsa, shunday edi: u butun vujudi bilan nimaniki istasa, izlansa, intilsa, o'sha narsa unga nasib etardi, biroq bir odamga bu ko'plik qilardi. Dastavval uning orzusi ro'yobga chiqib, baxti chopgan bo'lsa, keyinchalik achchiq taqdir chekiga tushdi. Hayot shundayki, hukmdor hakimiyat deb, puiga tuzoq qo'yan odam pul deb, laganbardor xushomadgo'ylik ortida, o'yin-kulgiga o'ch odam esa kayf-safu, maishat deb o'z boshiga yetdi. U o'z maqsadiga erishdi, u tobora, borgan sayin mustaqilroq bo'la bordi, hech kim buyruq bermas, u hech kimning izidan, yo'ldan bormas, o'z turmush tarzini o'zi yolg'iz, erkin va mustaqil hal qilardi. Chunki har qanday kuchli inson nimaniki izlansa, unga intilsa, o'sha narsaga albatta erishadi. Biroq ana shu erishilgan erkinlikning o'rtasida Harri kutilmaganda shuni sezib qoldiki, erkinlik uning uchun o'lim bilan barobar ekan. U o'zi yolg'iz qolgan, borliq dunyo uni butkul, vahimani tarzda xoli qo'ygandi, uning endi odamlar bilan ham, o'zi bilan ham ishi yo'q edi, u endi asta-sekin yolg'izlik va aloqa-munosabatlarsiz muhitning tobora, borgan sayin torayib borayotgan havosidan bog'ila boshlagandi.

Chunki tanholik va mustaqillik uning istak-xohishi, maqsadigina emas, balki uning qismati, unga aytilgan hukm ekanligi ayon bo'lib qoldi, aytilgan sirli niyat amalga oshgan, endi uni qaytarib bo'lmay, u endi sog'inch va yaxshi niyat bilan qo'larini cho'zib, aloqa-munosabatlarga hozir bo'lgani bilan unga endi hech narsa yordam beroimasi: uni yolg'iz tashlab ketishgandi. Bu borada u odamlarga yoqmay qolgan yoki uni sal bo'lsa-da yomon ko'rib qolishgan emasdi. Aksincha, uning do'stlari juda ko'p edi. Uni ko'pchilik yaxshi ko'rardi. Biroq bularning barchasi unga nisbatan shunchaki xayrixohlik va iltifotgina edi, xolos. Uning nomiga taklifnomalar kelar, unga sovg'alar in'om qilishar, ajoyib mak-tublar yozishardi, biroq unga hech kim yaqin kelmas, hech qayerdan hech qanday aloqa-munosabat yo'q, hech kimning u

bilan dardlashgisi kelmas va bunga qodir ham emasdi. Uni endi yolg'iz bir g'aribning dim havosi, sokin muhit, bilinlar-bilinmas, sirg'alib ko'zdan g'oyib bo'layotgan atrof-olam, aloqa-munosabatlarga noqobilik o'rab olgandikim, ularga qarshi endi hech qanday bir istak yoki xohish biron nima qila olmasdi. Bu uning hayotining muhim belgilaridan biri edi.

Yana boshqa belgilaridan biri uning o'z joniga qasd qiluvchilar toifasiga mansubligi edi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, faqat o'zini o'zi o'ldirgan odamlariga o'z joniga qasd qiluvchilar deb atash noto'g'ri bo'lur edi. Bularning orasida ma'lum darajada tasodif tufayliga o'z joniga qasd qiluvchilar ham ko'pchilikni tashkil etadiki, ularning tabiatiga o'z joniga qasd qilish xatti-harakati muqarrar mansub bo'lavermaydi. Kuchli ko'rinish, shaxsiyat, kuchli taqdirga ega bo'lmagan, o'rtamiyona va poda (o'ziga xos sifatlarini yo'qotgan) odamlar orasida ham, garchi ular o'z shaxslari nuqtayi nazaridan o'z joniga qasd qiluvchilar toifasiga mansub bo'lmasalar-da, o'z joniga qasd qilib halok bo'ladiganlari oz emas. Ayni paytda esa tabiatan o'z joniga qasd qiluvchilar deb hisoblanadiganlarning juda ko'pchiligi, ehtimol, aksariyati haqiqatda hech qachon o'z joniga qasd qilmaydilar. «O'z joniga qasd qiluvchi» – Harri ham ularning biri edi – o'lim bilan juda yaqin aloqada bo'lib yashashi shart emas – bunga o'z joniga qasd qiluvchi bo'lmay turib ham erishishi mumkin. Biroq o'z joniga qasd qiluvchining bir xususiyati borki, u o'zining «men»ini, haqmi, nohaqmi, baribir o'ta xavfli, shubhali va xavf-xatar ostida qolgan tabiat ibtidosi deb his qiladi.

U o'zini doimo favqulodda xavf ostida deb hisoblaydi, go'yo u qoya cho'qqisining eng uchida, eng qaltis joyida turibdi-yu, tashqaridan zarragina turtki yoki ichkaridan zig'irdaklana zaiflik bo'lsa, bas, uning bo'shliqqa «gup» etib qulashi turgan gap. Bu xildagi insonlarning taqdir-qismati shu bilan belgilanadiki, ularning tasavvurida o'z joniga qasd qilish ular uchun eng ehtimol tutilgan o'lim turi hisoblanadi. Deyarli juda yoshlikdanoq namoyon bo'la boshlaydigan va bu odamlarga butun umr yo'ldosh bo'ladigan bunday kayfiyatni yuzaga keltiruvchi shart-sharoit hayotbaxsh kuchning o'ta zaifligidagina emas. Aksincha, «o'z joniga

qasd qiluvchilar» orasida ham favqulodda sabot-matonatli, chidamli, jasur va ko'ngildagidek insonlar uchrab turadi. Biroq salgina kasallikka isitmasi ko'tariladigan, isitmaga moyil tabiatlilar ham uchraydiki, biz ularni «o'z joniga qasd qiluvchilar» deb ataymiz – ular hamisha o'ta sezgir va hassos bo'lishadi – bundaylar o'ziga ruhiy iztirobga uchrashi bilan o'z jonlariga qasd qilish xayoliga beriladilar. Agar bizza hadeb hayot hodisalari mexanizmlari emas, balki uning o'rniga odamlar bilan ham shug'ullanishga o'zida jasorat va mas'uliyat topa oladigan antropologiyaga o'xshashmi yo' psixologiyaga o'xshaganmi ilm-fan bo'lganda edi, bu dalillar har bir kishiga ma'lum va ravshan bo'lgan bo'lur edi.

Biz yuqorida o'z joniga qasd qiluvchilar xususida nimaiki aytgan bo'lsak, albatta, bularning barchasi sirt, yuzaga tsalluqli va psixologiya hamda fizikaning uzviy bir qismi deyish mumkin. Metafizik jihatdan olganda, bu masala boshqacharoq va yanada ravshanroq ko'rinadi, chunki bundoq qaraganda «o'z joniga qasd qiluvchilar» bizga o'zlarini individuallashishning aybdorlik his-tuyg'ulari bilan qamrab olganlar qilib tasvirlaydilar, ular o'zlarini shunday jonlar qilib ales ettiradilarki, ularga tashqi qiyofa, ko'rinish, mukammallik emas, balki onaga, Xudoga, koinotga qaytib, singib yo'q bo'lib ketish ko'proq hayot maqsad-mazmuni bo'lib ko'rinadi. Bu xil tabiatdagi odamlarning ko'plari bir kunmas-bir kun o'z jonlariga haqiqatan ham qasd qilishga noqobildirlar, chunki ular bunday gunohning nima ekanligini yaxshi biladilar. Shunday bo'lsa-da, ular biz uchun baribir o'z joniga qasd qiluvchilar hisoblanadi, chunki ular o'z xaloskorlarini hayotda emas, o'limda deb biladilar, ular o'zlarini kamsitishga, yerga urishga va qurbon qilishga, o'z hayot shamlarini o'zlarini o'chirishga hamda ibtidoqqa qaytishga shay turadilar.

Har qanday kuch ham bir kunmas-bir kun zaiflashishi mumkin bo'lganidek (ma'lum sharoitlar shunga olib keladi ham), tipik o'z joniga qasd qiluvchi, aksincha, o'zining ma'lum zaifligidan ko'pincha kuch va tayanch qidiradi, ko'p hollarda uni topishga erishadi ham. Harri – Cho'l bo'risi xususida ham xuddi shu gapni aytish mumkin. O'ziga o'xshagan minglab kishilar singari u ham o'lim sari yo'l unga har doim ochiq turganligini tasavvur

qilib, bu faqat yoshlikning dilgir o'y-xayolga berilish o'yini emasligini tushunib yetib, xuddi shu fikrdan kelib chiqqan holda o'ziga taskin va tasalli, tayanch topa oldi. Uning toifasidagi barcha kishilarga o'xshab vujudidagi har bir ruhiy iztirob, har bir azob, turmushdagi har bir yomon holat uni o'limga chorlardi.

Mana shu moyillikka u asta-sekin hayotga xizmat qiladigan falsafani yarata bordi. Hayotdan ketish uchun ehtiyot choralar hamisha mavjudligi haqidagi fikrning yaqinligi unga kuch-quvvat berdi, uni azob-iztiroblarni, yomon holatlarni boshdan kechirib ko'rishga qiziqtirib qo'ydi. Endi u o'ta chor-nochor qolgan paytlarida o'ziga o'zi ichiqoralikning bir turi bo'lgan zaharxandalik bilan shunday der edi:

- Axir, men bir odamning sabr-bardoshi qanchaga yetishini ko'rishga qiziqayapman-ku! Sabr-bardosh sarhadiga yetgudek bo'lsam, eshikni ochaman, u yog'l tamom-vassalom.

Mana shu xildagi fikrdan favqulodda, misli ko'rilmagan darajada kuch-quvvat oladigan o'z joniga qasd qiluvchilar juda ko'plab topiladi.

Yana bir tarafi, barcha o'z joniga qasd qiluvchilarga bu vasvasaga qarshi kurashish ham ma'lum. Har bir kishi o'z ko'nglida, dilda o'z joniga qasd qilish - qutulish yo'li, chorasi bo'lsa-da, baribir u o'z, notavon va noqonuniy o'l ekanligini yaxshi biladi. Aslida, o'z hayotingga o'z qo'ling bilan zomin bo'lgandan ko'ra yoshingni yashab, oshingni oshab, vaqti-qismating yetganda oyoq uzatib ketganga ne yetsin. Buni bilish, imonsizlik va uning bosh sabablari o'zini o'zi kalaka qiluvchilarning xatti-harakatlariga o'xshab bo'lmag'ur bo'lganidek, ko'pchilik o'z joniga qasd qiluvchilarni ham o'z joniga qasd qilish vasvasasiga qarshi doimiy kurash olib borishga da'vat etadi. Kleptomani (o'g'irlikka moyillikdan iborat ruhiy kasallikka duchor bo'lgan kishi) o'z illatiga qarshi qanday kurashsa, ular ham xuddi shunday kurash olib boradilar. Cho'l bo'risiga ham bu kurash yaxshi tanish bo'lgan, uni xilma-xil, turli-tuman o'zgaruvchan qurollar vositasida olib borgan. Nihoyat, salkam qirq yetti yoshda uning miyasiga ajoyib va jiddiy bir fikr kelib qoladi. Bu fikr uning o'zini ham ko'pincha shodlantirib yuborardi. U o'zi ellik yoshga to'ladigan kuni max-

sus belgilab, xuddi shu kuni o'z joniga qasd qilishga qaror qiladi. Shu kuni so'nggi chorani qo'llash yo qo'llamaslik masalasini kunning kayfiyatiga qarab hal qilishni o'zi bilan kelishib oladi. U istagan narsa sodir bo'lishi, kasal bo'lib qolishi, qashshoqlashishi, alam va iztiroblarni o'z boshidan kechirishi mumkin edi - bularning barchasining vaqti-soati bor edi, ular sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yillar, oylar, kunlarning soni esa kun sayin qisqarib borardi! Haqiqatan ilgari uni boshiga og'irroq va uzoqroq azob bergan, balki tovonigacha zirqiratil yuborgan ayrim ko'rgilik, g'am-kulfatlarni endi u bir oz yengilroq o'tkazib yuborardi. Qandaydir sabablarga ko'ra ahvoli o'ta og'irlashgan, hayotidagi ruhiy tushkunlik, g'ariblik va yovvoyilik endi boshqa azoblar yoki yo'qotishlar ham kelib qo'shilgan paytlarda u ana shu azoblariga qarata: - Shoshmay turlaring, yana ikki yil sabr qillaring, ana undan keyin o'zim sizlarning hukmdoringiz bo'laman derdi. Shundan so'ng u yana o'y-xayollar girdobiga ko'milib ketardi. Ellik yoshga to'lgan kuniida ertalabdan xatlar va tabriknomalar kelishini tasavvur qilarkan, o'z ortidan eshikni asta yopib, ustarasini ishga solib, barcha azob-uqubatlardan birato'la qutulib qo'ya qolishni ko'ngliga tugib qo'yadi. O'shanda balki suyaklardagi podagra, dilgirlik, bosh og'rig'i va oshqozondagi dard-illatlar ham butunlay tarham toparmidi...

Cho'l bo'risining shaxs fenomenini, xususan, uning meshchanlikka bo'lgan o'ziga xos munosabatini bu hodisalarning asosiy qonunlariga bog'lab tushuntirishga urinish ortiqchadir. Misol uchun, uning o'sha «meshchanlikka» bo'lgan munosabatini boshlang'ich nuqta sifatida olib ko'raylik.

Cho'l bo'risi o'zining fikr-qarashlari bo'yicha meshchanlik olamidani butunlay tashqarida bo'lgan, chunki u na olaviy hayotni, na ijtimoiy shuhratparastlikni bilgan. U o'zini mutlaqo o'ziga xos, boshqacha odam, goh kasalmand darvesh, goh esa me'yorida ortiq, daholarga o'xshab qobiliyatli, o'rtamiyona hayotning mayda me'yorlaridan ulug'vor bo'lgan shaxs sifatida his qilardi. U burjuydan ongli ravishda nafratlanar, burjuy bo'lmaganidan faxrlanardi. Shunday bo'lsa-da, u ba'zi bir jihatdan butunlay meshchanlarga o'xshab hayot kechirardi, uning bankda puli bor edi,

kambag'al, beva-bechora qarindosh-urug'larini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlab turardi U kiyinishga unchalik ham e'tibor beravermas, bama'ni va ko'zga tashlanmaydigan kiyim kiyardi. Politsiya, soliq idorasi va shunga o'xshash boshqa ma'murlar bilan ahillikda yashashga harakat qilardi. Biroq bundan tashqari, u meshchanlarning mayda olamini, ozoda bog'chalar, top-toza yaltiratib tutilgan zinalarga ega bo'lgan va tartib-intizom hamda odob-odamshavandalikning kamtarona havosi ufurib turgan sokin, bama'ni xonadonlarni doimiy ravishda kuchli, ichki bir ishtiyok bilan sog'inari, qo'rsardi. Unga o'zining mayda illat va tentakliklari, o'zini meshchanlar olamidani tashqari, g'alati, o'ziga xos odam yoki daho his qilib yashash yoqar, lekin baribir, ta'bir joiz bo'lsa, u hech qachon meshchanlik yo'q bo'lib borayotgan ovloq, chekka viloyatlarda yashamas, bunday joylarni ma'kon tutmasdi. U na zo'ravonlarning, na favqulodda qobiliyat egalarining va na jinoyatchilar yoxud haq-huquqsizlarning orasida o'zini yaxshi his qilardi, balki hamisha shunday fuqarolar bilan birga istiqomat qilardiki, ularning odatlari, me'yor va muhiti bilan, garchi u ziddiyat, g'ulg'ula va iztiroblardan iborat bo'lsa ham, yaqin, doimiy aloqada bo'lardi. Bundan tashqari, mayda meshchanlar tarbiyasini olganligidan o'sha tarafdani ham bir talay andaza va tushunchalarni o'zida saqlab qolgan edi. U fohishalikka nazariy jihatdan qarshi bo'lmasa-da, shaxsan qizlar bilan jiddiy munosabatda bo'lish va ularni o'ziga o'xshash deb qarash uning qo'lidani kelmadi. Siyosiy jinoyatchi, inqilobchi yoki ma'naviy fosiq, davlat va jamiyatni man qilganlarni u o'z og'asidek yaxshi ko'rardi, biroq o'g'ri, toshteshar, sadist-qotillar bilan, keyin meshchanlarga xos afsus-nadomat chekib yurmaslik uchun, umuman va hech qachon osh-qatiq bo'lmadi.

Shu tariqa u o'z vujudini va xatti-harakatlarining yarmini tan olar va hamisha ma'qullar, qolganini esa inkor qilar va unga qarshi kurash olib borardi. Avaylab-asragan, nafis va go'zal, meshchan xonadonida o'sib-ulg'ayganidan va o'z shakli-shamoyili, xulq-odobini saqlab qolganidan allaqachon meshchanlikka mos mezondan chiqib individuallashib, o'zini meshchanlik a'mol va e'tiqodidan xalos qilganidan so'ng ham vujudining bir bo'lagi bilan u hamon ana shu olamning tartibotlariga ilinib, ilakishib yurardi.

«Meshchanlik» tushunchasi ham, aslini olganda, inson xulqi, xatti-harakatlari o'rtasidagi son-sanoqsiz holatlar va ziddiyatlarni muvozanatlashtirish, baravarlashtirishga bo'lgan urinishdan, intilishdan boshqa narsa emas. Ana shu ziddiyatlardan birontasini, misol uchun, taqvodor bilan buzuq o'rtasidagi holatni oladigan bo'lsak, muqoyasamiz darhol tushunarli bo'ladi-qoladi. Inson o'zini butkul ma'naviyatga bag'ishlash, ilohiylikka yaqinlashishga harakat qilish, taqvodorlikka berilish imkoniyatlariga ega. U, aksincha, o'z imkoniyatlarini butunlay jinsiy hayotga, ko'nglining mayl-istaklarini qondirishga yo'naltirishi, o'zining butun intilishini bir zumlik ho-yu havaslarga, kayf-u safolarga sarf etishi mumkin. Birinchi yo'l taqvodorlikka, ruhning jafokash taqvodorligiga, o'zni Tangriga topshirishga olib boradi. Ikkinchi yo'l esa buzuqlikka, ho-yu havaslar azobiga, o'zni aynishga, buzilishga, tanazzulga mahkum etishga eltadi. Fuqaro har ikkalasining o'rtasida mo'tadil, xolis yashashga harakat qiladi. U hech qachon na kayf, na tarkidunyoehillikdan voz kechadi, u hech qachon martir - jafokash taqvodor bo'lolmaydi, o'zining mahv etilishiga ham rozi bo'lmaydi, aksincha, uning a'moli sadoqat, fidokorlik emas, balki o'z «men»ini saqlashdir, uning intilishi ilohiylikka ham, uning aksiga ham daxldor emas, cheksizlik uning uchun juda og'ir, u albatta Xudoga xizmat qilishni xohlaydi, lekin kayf qilishni ham esdan chiqarmaydi, u albatta himmatli, saxovatli bo'lishni istaydi, biroq shu bilan birgalikda dunyoda bir oz yaxshi yashashni ham xohlaydi. Qisqasi, u qarama-qarshiliklar o'rtasidagi muhitda, kuchli bo'ronlar va momaqaldiroqlar bo'lmaydigan o'rtamiyona, xolis va qulay joyda qo'nim topishga harakat qiladi, bunga muvaffaq ham bo'ladi, biroq cheksizlik va noilojlikka yo'naltirilgan hayot baxsh etadigan o'sha turmush va tuyg'ular jo'shqinligi evaziga erishadi bunga. Qizg'in va jo'shqin yashash mumkin, faqat endi bu «men» evaziga mumkin. Fuqaro endi «men»dan, har holda o'smay, rivojlanmay qolgan «men»dan, boshqa hech narsani tan olmay qo'yadi. Jo'shqinlik evaziga u endi xotirjamlik va xavfsizlikka erishadi, Tangriga astoydil berilish o'rniga vijdon xotirjamligini qo'lga kiritadi, xursandchilik o'rniga huzur-halovatga, erkinlik o'rniga qulaylikka, o'lim talvasasida kuyib-yonish o'rniga yoqimli haroratga

ega bo'ladi. Fuqaro shuning uchun ham o'z mohiyatiga ko'ra zaif hayot omiliga ega bo'lgan mavjudotdir, qo'rqoq, jur'atsiz va yuraksiz, har bir yo'qotishdan cho'chib, hadiksiraydi, uni oson boshqarsa bo'ladi. U shuning uchun ham hokimiyat o'rniga (ovozlarning) ko'pchiligini, kuch o'rniga qonunni, mas'uliyat o'rniga ovoz berish tartibini joriy qilgan.

Bu kuchsiz va qo'rqoq odamzod son jihatidan shu qadar ko'p bo'lsa ham, o'z xususiyatiga ko'ra bu olamda adashib, daydib yurgan bo'rilar orasiga tushib qolgan qo'zichoqlar podasi bajara-digan roldan boshqasining uddasidan chiqolmasligi kunday ravshan. Shunday bo'lsa-da, kuchli shaxslar hukmronlik qilgan davrlarda fuqaro iskanjaga olingani, shunga qaramasdan, baribir zavol topmay, ba'zan ommani boshqargani tarixdan ma'lum. Bu qanday mumkin bo'lar ekan. Uni halokatdan qutqarib qolish uchun na suruv-suruv podalar, na xayr-saxovat, na common sense (sog'lom aql - inglizcha) va na tashkilotchilik yetarli edi-ku. Kimdagi yashash jo'shqinligi avval-boshdan qo'z, kuchsiz bo'lsa, uning hayotini dunyodagi hech qanday bir tibbiyot ham saqlab qololmaydi. Biroq shunga qaramasdan, burjuaziya hamon yashab kelmoqda, u hamon kuchli va gullab-yashnayapti. Xo'sh, nima uchun?

Javob tayyor: Cho'l bo'rilar borligi tufayli. Aslida burjuaziyaning hayotbaxsh kuchi hech qanaqasiga uning sog'lom, esli-hushli a'zolari xususiyatlarida emas, balki uning a'mollarining mujmalligi va moslashuvchanligi oqibatida qo'shib-qamrab olinadigan favqulodda ko'psonli yet, begona kishilarning fazilatlaridadir. Burjuaziya hamisha bir talay kuchli va yovvoyi tabiatli shaxslar yashab keladi. Bizning Cho'l bo'rimiz Harri bunga yorqin misoldir. U fuqaroga mos mezondan chiqib, shaxs sifatida shakllangan bo'lib, mushohadaning mazasini nafrat va o'z-o'zini nafratning g'amgin quvonchlariga yanglig' yaxshi bilsa-da, qonundan, yaxshi xislatlardan va common sense'dan nafratlanishiga qaramasdan, baribir u burjuaziyaning zo'rma-zo'raki mahbusidir va undan qochib qutulolmaydi. Shunday qilib, haqiqiy burjuaziya ommasi atrofida insoniyatning keng qatlamlari, ko'pminglab kishilar va ziyolilar uyushadiki, ularning har biri burjuaziya o'sib chiqqan cheksizlikda hayot kechirish uchun tug'ilgan bo'lsa-da, baribir

ularga burjuaziyaning barchana his-tuyg'ulari xos va uning hayot jo'shqinligi zaifligidan bir chimdini yuqutirib olishgan, ular burjuaziya qandaydir turib qolishgan, unga qandaydir darajada tobe, burchli va qaramdirlar. Alabxus, ulug'larning kimki menga qarshi bo'lmasa, u men uchundir degan teskari tamoyili aynan burjuaziya daxldordir.

Shunga asosan, Cho'l bo'risining qalb-ko'nglini taftish qiladigan bo'lsak, u o'zini avvalo Inson sifatida namoyon etadi, individuallashishning yuksak darajasi uning fuqaro emasligini ko'rsatadi, chunki barcha yuksak boshqarilayotgan individuallashish «men»ga qarshi, qolaversa, uning parchalanishiga ham no'ldir. Biz uning ham taqvodorlik, ham fosqlik yo'nalishlari bo'yicha o'zida kuchli omillarga ega ekanligini ko'ramiz, biroq qandaydir zaiflik yoki lanjligi tufayli keng, bepoyon koinotga qanot qoqa olmaganda burjuaziyaning bachadonidagi burjlarga bog'lanib, o'ralashib qolgan. Bu uning dunyo sahnidagi holatini, erkin emasligini, qo'l-oyog'i bog'loqligini ko'rsatadi. Ko'pchilik aql-zakovat sohiblari, san'atkor odamlarning eng ko'p qismi xuddi shu toifaga mansubdirlar. Ulardan faqat eng kuchlilarigina fuqarolik yeri at-mosferasini yorib o'tib, koinotga chiqadilar, boshqalari esa o'zining kuchsizligini tan olib, taslim bo'ladilar yoki murosaga keladilar, ular burjuaziya-dan nafratlanaganlari holda, unga mansub bo'lib qolaveradilar, uni mustahkamlab, shuhratini yoyaveradilar, axiri provardida esa, kelgusida yashay olish uchun, uni ma'qullashga majbur bo'ladilar. Son-sanoqsiz bu odamlarga fojia-viylik emas, balki uncha-muncha omadsizlik va achchiq taqdir kamlik qiladiki, shuning jahannamida ularning iste'dodlari qiyomiga yetadi va sermahsul bo'ladi. To'dadan ajralgan ozchilik qismi esa cheksizlikka kirib keladi hamda taajjublanarli tarzda inqirozga yuz tutadi, ularning qismati fojiali kechadi. Boshqalariga - qo'l-oyog'i bog'loq qoladiganlarga - iste'dodlari tufayli burjuaziya ko'pincha uning izzat-hurmatini joyiga qo'yadi - uchinchi imperiya - aldamchi, biroq suveren dunyo: yumor ochiq turadi. Doimiy ravishda va dahshatli tarzda iztirob chekadigan tinib-tinchimas, behalovat, jonsarak Cho'l bo'rilar fojia-viylikka, yulduzlar olamiga yorib o'tishga zarur bo'lgan kuch-quvvatdan qolganliklaridan

o'zlarini cheksizlik uchun tug'ilgan deb his qilsalar-da, biroq unda yashay olmaydilar: agar ularning ruhi azob-iztirob tufayli kuchli va moslashuvchan bo'lib qolgan bo'lsa, ular uchun yumor sari murosayi madora yo'li ochiladi. Yumor, garchi uni haqiqiy fuqaro tushunishga qodir bo'lmasa-da, hamisha burjuaziyaga qandaydir mansub bo'lib qolaveradi. Uning yolg'ondakam mohiyatida barcha Cho'l bo'rilarining chalkash, chigal, parchalanib ketadigan a'mollari amalga oshadi: bu yerda bir vaqtning o'zida nafaqat ruhoniy va fosiqqa nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish, qutblarni bir-biriga egish mumkin bo'ladi, balki yana fuqaroni ham shunga rozi bo'lishga ko'ndirishning imkoni tug'iladi. Tangrini astoydil sevgan kishi jinoyatchiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi mumkin, va buning aksi o'laroq, boshqa barcha cheksizlikka da'vat etilganlar esa o'sha betaraf, befarq davra - burjuaziyani ma'qullashlari amrimaholdir. Yolg'iz yumorgina, o'z vazifasi, burchi, qismati bo'yicha eng og'ir, qiyin, tang ahvolga tushib qolgan, deyarli fojiali, eng qobiliyatli baxtsiz odamlarning ajoyib ixtirosi - yolg'iz yumorgina (ehtimol, odamzodning eng o'ziga xos va dohiyona yutug'iyam shu bo'lsa kerak) mana shu iloji yo'q narsani amalga oshiradi, insoniyatning barcha qatlamlarini o'z nurlari bilan qamrab olib, birlashtiradi. Dunyoda go'yo u dunyo emasdek yashash, qonun bilan hisoblashgan holda undan yuqori turish, egalik qilmayotgandek tasarruf etish, go'yo inkor qilimgandek voz kechish - yuksak hayot donishmandligining mana shu barchaga sevimli bo'lib qoigan va ko'pincha aniq ifoda etilgan talablarini amalga oshirishga yolg'iz yumorgina qodirdir.

Agar Cho'l bo'risiga o'z do'xaxining dim chigal-chalkashliklari uzra mana shu sehr-joduli ichimlikni obdan qaynatib, ter bilan chiqarvorish nasib qilganda edi, buning uchun uning iste'dodi va ishtiyoqi yetarli, ana o'shandagina u xalos etilgan bo'lardi. Bu yo'lda hali unga yana ko'p narsa yetishmaydi. Biroq bunga umid qilsa bo'ladi, buning uchun imkoniyatlar ham mavjud. Kimki uni sevsa, kimki uning qismatiga sherik bo'lsa, unga mana shu najotni tilay oladi. Bu tufayli u, albatta, bir umrga burjuaziyada qolgan bo'lardi, lekin endi uning azob-iztiroblariga chiday olar, ular o'z mahsulini bera boshlagan bo'lar edi. Uning meshchanlik olamiga

bo'lgan munosabati, muhabbat va nafrati o'z hassosligini yo'qotgan, uning bu dunyoga bog'lanib qolishiga ortiq badnomlik bo'lib qiynamagan, o'z-o'zidan barham topgan bo'lardi.

Bunga erishish uchun yoxud, ehtimol, pirovardida koinotga yetishish uchun yana bir bor jur'at qilib ko'rishdan oldin bunday Cho'l bo'risi avvalo o'z-o'ziga qarama-qarshi, yuzma-yuz qo'yilishi, solishtirilishi, o'z qalbi, ko'nglining chigalliklariga teranroq nazar tashlashi va es-hushini to'laroq anglab olishi kerak bo'ladi. O'shandagina uning o'zgermas, bir zaylda tuyulgan shubhali, dargumon tirikligi chok-chokidan so'kilib, ochilib qolgan bo'lar edi. U endi bundan buyon o'z mayl-istaklarining jahannamidan hassos-falsafiy tasalli-taskin topmagan, bundan buyon esa yana ko'r-ko'rona bo'rilik da'vo qila olmagan bo'lardi. Inson va Bo'ri bir-birlarini soxta his-tuyg'ular niqobisiz taniy olishga, bir-birlarining ko'zlariga tik boqishga majbur bo'lishardi. Shundagina ular yo portlab, tilkapor bo'lgan yoki bir umrga bir-birlaridan yuzko'rmas bo'lib ajrashgan bo'lishardi, ana shundagina hech qanday Cho'l bo'risi ham bo'lmasdi, yo bo'lmasam ular yumorning yuksalayotgan yog'dusi ostida bir-birlari bilan oqlona turmush qurgan bo'lardilar.

Harri bir kunmas-bir kun mana shu so'nggi imkoniyat mar-rasiga yetib borib qolar balki. Ehtimol, kunlarning birida u o'z-o'zini tanishni o'rganar, kichkinagina ko'zgmizni qo'lga olar, yo umri boqiyilarni uchratib qolar, yoki magiyaviy teatrlarimizdan birida o'zi izlayotgan - huvillagan qalbini xalos etishga yordam beradigan narsani topib olar. Unga bundayin minglab imkoniyatlar muntazir, uning taqdirini ixtiyorni olib qo'yadigan darajada o'ziga chorlamoqda, burjuaziyadagi barcha bunday odamovi, damduzlar shunda magiyaviy imkoniyatlar vaziyatida yashaydilar. Yashin urishiga esa arzimagan narsa kifoya qiladi.

Bularning barchasi, garchi Cho'l bo'risi o'z botiniy tarjimayi holining bunday tuzilishini hech qachon ko'rolmasa ham, unga juda yaxshi tanish. U dunyo binosidagi o'z o'rnini oldindan ko'radi, umri boqiyilarni yaxshi biladi, o'z-o'zi bilan bo'ladigan uchrashuv imkoniyatlarini oldindan payqaydi, sezadi va undan qo'rqadi, u o'sha ko'zguning borligini ham biladi, unga bir qarang olishga nihoyatda muhtoj bo'lsa-da, biroq baribir bunga jur'at yetolmaydi.

Tadqiqotimiz so'ngida yana bir oxirgi soxta vaziyat – asosiy xatoni aniqlab, hal qilish qolaypti. Barcha «izoh»lar, psixologiya, tushuntirish yo'lidagi barcha urinishlar yordamchi vositalar, nazariyalar, afsonalar, yolg'onlariga tayanib ish ko'radilar; bunday yolg'onlarni hikoya, bayon so'ngida imkon qadar ochib bermaslikni insofli muallif o'ziga ep ko'rmaydi. Agar men «yuqorida» yoki «quyida» desam, bu bir fikr, da'vo hisoblanadi, endi uni tushuntirib, izohlab berish lozim bo'ladi, chunki «yuqori» va «quyi» tushunchalari faqat tafakkurda, faqat mavhumotda bo'ladi. Dunyoning o'zi esa na yuqorini, na quyini biladi.

Xuddi shunday, muxtasar qilib aytganda, «Cho'l bo'risi» ham aslida uydirma. Agarda Harri o'zini o'zi bo'ri-odam deb his qilib, bir-biriga dushman va qarama-qarshi ikki vujudan iborat mavjudot deb bilsa, bu endi soddalashtirilgan afsonaning o'zginasidir. Harri aslida hech qanday bo'ri-odam ham emas va agar biz uning o'zi o'ylab topgan va ishongan yolg'oniga shunchaki inonib, o'zlashtirilgan va uni haqiqatan ham qo'sh tabiatli, ikkiyoqlama mavjudot, Cho'l bo'risi deb qarab tushuntirishga harakat qilgan bo'lsak, bunga endi biz osonroq tushunarli bo'lsin degan umidda yo'l qo'rganmiz, ya'ni yolg'ondan o'z o'rnida foydalanmizki, endi mana shu yolg'on, aldov, xatoni aniqlash, tuzatish va to'ldirishga to'g'ri keladi.

Bo'ri va Insonga, mayi, istak, intilish va ruhga bo'linish – bular orqali Harri o'z taqdirini tushuntirib berishga harakat qiladi – real voqelikning odam o'zida uchratadigan va unga o'z iztiroblari manbai bo'lib ko'rinadigan ziddiyatlarining asosli, ishonarli, tushunarli, biroq yolg'on, xato va noto'g'ri tushuntirilishi foydasiga bo'lgan juda qo'pol ravishdagi va majburiy qilingan soddalashtirilishidir. Harri o'zida «insonni», ya'ni fikr, his-tuyg'u, madaniyat, bo'ysundirilgan va takomillashgan ulug'vor tabiat olamini uchratadi, shu bilan birga, «bo'ri»ni – mayi-istak, intilishlar, yovvoyilik, takomillashmagan tabiatning noma'lum, zulmat dunyosini ham topadi. O'z vujudining bir-biriga dushman bo'lgan ikki muhitga ko'rinishdan shu qadar aniq bo'linishiga qaramasdan, u baribir bo'ri bilan insonning goh-gohida, ba'zan bir-birlari bilan bir zumga bo'lsa-da o'zaro chiqishib, murosqa qilishganiga

ham shohid bo'lgan. Agar Harri o'z hayotining har bir alohida lahzasida, ishlari, hissiyotlarining har birida Insonning hissasi qanchaligini, bo'rining ulushi qanchaligini aniqlashga uringanida bormi, u g'oyat qiyin, mushkul ahvoldagi tushib qolar va uning butun ajoyib bo'ri nazariyasi mayda-mayda bo'lib ketgan bo'lar edi. Chunki har qanday inson, ibtidoiy habash ham, esi past ovsar ham ikki yoki uch asosiy unsurdan tarkib topgan jo'ngina mavjudot emas; va Harridek «tabaqalashgan» insonning bo'ri va odamga bo'linishini tushuntirib o'tirish – bolalarga xos befoyda urinishdan boshqa narsa emas. Harri ikkitagina emas, balki yuz, minglab tabiatlardan tarkib topgan. Uning hayoti (har bir inson hayoti singari) nafaqat ikki qutb, basharti mayi-istak, intilish va ruh yoki ruhoniy hamda fosiq o'rtasida bo'lmasa, balki minglab, hisobiga yetib bo'lmaydigan son-sanoqsiz juft qutblar o'rtasida parvoz qiladi.

Harridek hamma narsadan xabardor, bilimdon va aqlli odam o'zini «Cho'l bo'risi» hisoblab, o'z hayotining boy va murakkab hosilasini shu qadar sodda, kamtar, shunchalk berahim, shafqatsiz, vahshiyona, shu qadar ibtidoiy formulaga joylashtira olishiga ishonishi bizni taajjubga solmasligi kerak. Inson yuqori darajadagi tafakkurga qodir emas, eng aqlli va o'qimishli odam ham dunyoni va o'zini(!) doimo juda sodda, soddalashtirilgan va boshqacha tarzda aldovchi formulalar ko'zoynagi orqaligina ko'radi. Chunki o'zining «men»ini yaxlit bir birlik deb tasavvur qilish barcha insonlarning tabiiy, tug'ma va butunlay zo'rma-zo'raki ta'sir etuvchi ehtiyojiga aylangan, chamasi. Bu vasvasa qanchalik tez-tez va og'ir darajada yuzaga kelmasin, baribir tuzalib, tibus ketaveradi. Qotilning ro'parasida o'tirib, uning ko'ziga tikilib turib hakam qotilning bir laha uning (hakamning) ovozi bilan gapira boshlaganini eshitisa va uning barcha harakat, qobiliyat va imkoniyatlarini o'zida ham sezib, payqab qolsa ham, u baribir keyingi lahzada tag'in bir raqami – hakamdir, o'z tasavvuridagi «men»ining parda-qobig'iga qaytadan o'ralib oladi-da, o'z burchini bajaraveradi va qotilni o'limga mahkum etadi. Agar ayrim qobiliyatli va nozik, sezgir insonlar o'z ko'nglida o'zlarining parchalanuvchanliklarini oldindan seza boshlashsa, agar ular har bir daho singari shaxs birligi vasvasasini yorib o'tib, o'zlarini ko'p qismli «men»larning

bir tutami deb his qila boshlasalar, buni bildirib qo'ysalar kifoya, shu zahoti ularni (ovozlarning) ko'pchiligi qurshab oladi, ilm-fanni yordamga chaqiradi, shizofreniyanı qayd etadi va insoniyatni bu baxtsizlar og'zidan haqiqat chaqirig'ini eshitishdan asrab qoladi. Endi har bir fikrli inson uchun yoshligidan tushunarli bo'lgan, qolaversa, aytib o'ttirish urf bo'lmagan gaplar, narsalar haqida ortiqcha vaqt sarflab, valdirab o'ttirishning hojati bo'lmasa kerak? Demak, agar inson o'z tasavvuridagi «men»ni ikki kishini mujassamlashtirgan bir butunlik tomon kengaytirishga, yoyishga harakat qilsa, shuning o'zi deyarli daholikdir, shu bilan birga, kamdan kam uchraydigan va qiziqarli istisno hamdir. Aslida esa hech qanday «men», hatto eng soddasi ham, yaxlit birlik emas, balki eng yuksak parchalanuvchan olam, kichik yulduzli osmon, shakillar, pog'onalar va holatlar, meros (vorislik) va imkoniyatlar tumtaroqligidir. Har bir alohida shaxs bu tumtaroqlikni yaxlit bir birlik deb qarashga intilsa va o'z «men»i haqida go'yo sodda, mustahkam shakllangan, aniq bayon qilingan hodisadek gapiradigan bo'lsa, bu endi har bir (hatto eng yuksak) inson uchun ham ma'lum va odat bo'lib qolgan yolg'on va aldov nafas olish va ovqatlanishdek hayotiy zaruriyatga aylangan bo'ladi.

Bu yolg'on, aldov oddiygina ma'juziy ma'noda berilgan. Har bir inson gavda tuzilishi jihatidan yaxlit, qalb, ko'ngil nuqtayi nazaridan esa aslo unday emas. She'riyatda, nafis, go'zal she'riyatda ham odat bo'yicha doimo ko'rinishdan butun, ko'rinishdan umumiy, birlashgan shaxslar ishtirokida ish ko'riladi. Hozirgi kungacha yaratilgan ijod bobida mutaxassislar, adabiyot bilimdonlari dramani haqli ravishda yuqori bahalaydilar, chunki u «men»ni ko'pchilliklik deb tasvirlash uchun, agar bunga muqarrar bir martalik, birlashgan, yakunlangan uyg'unlikda tasvirlangan dramaning har bir alohida qatnashchisi yaxlit birlik deb aldaydigan yuzaki zohiriy ko'rinish monelik qilmasa, katta imkoniyat yaratadi (yoki yaratguchidir). Shuningdek, sodda estetika ham har bir obraz nihoyatda ko'rinarli va yaxlit birlik sifatida ishtirok etadigan «xarakter dramasi» deb ataladigan janrga eng yuqori baho beradi. Faqat uzoqdan va asta-sekin ko'nglimizda biz adashmayotganmizmi, agar biz antik davrning go'zallik haqidagi ajoyib, biroq bizga tabii-

iy, tug'ma bo'lmagan, balki faqatgina zo'riab o'tkazilgan, butun ichki mohiyatidan kelib chiqib «men», shaxs haqidagi yolg'onni o'ylab topgan tushunchalarini ulug' dramaturglarimizga nisbatan tatbiq etadigan bo'lsak, bu ehtimol arzoniga, yuzaki bir estetika bo'lib qolmasmikin degan shubha tug'ladi. Ko'lna Hindistonning she'riy asarlarida bu tushuncha butunlay noma'lum, hind eposlarining qahramonlari shaxslar emas, balki shaxslar to'ldasi, qator tajassum, timsollardan iborat. Bizning bugungi zamonamizda shunday asarlar borli, ularda shaxs va xatti-harakatlar o'yini ortida, muallifga butunlay ma'lum bo'lmagan holda, tabiatlar xilma-xilligini tasvirlashga urinish seziladi. Kimki agar buni bilmoqchi bo'lsa, u ana shunday asarlar obrazlarini yaxlitlik emas, balki yuksakroq birlik (meningcha, ijodkor qalbi)ning qism-bo'laklari, tomonlari, turli xil jihatlarini deb qarashi kerak bo'ladi. Kim agar Faustga shu tarzda yondashsa, uning uchun Faust, Mefistofel, Wagner va boshqa barchasidan bitta birlik – o'ta qudratli shaxs hosil bo'ladi va xuddi shu yuksakroq birlikdagina – alohida obrazlarda emas – qalb, ko'ngil, tabiatning asl mohiyati namoyon bo'ladi. Agar Faust maktab muallimlari orasida mashhur bo'lgan, o'z huzur-halovatini o'ziyadigan, tor fikrli kishilarni titratib, qaldiratadigan hikmatli so'z: «Ikki dil yashar, eh, ko'ksimda mening!» – desa, u Mefistofelni va ko'ksidagi boshqa bir talay tabiatlarni ham unutgan bo'ladi. Bizning Cho'l bo'rimiz ham o'z ko'ksida ikki ko'ngil, ikki tabiat (Bo'ri va Inson) mavjudligiga ishonadi va shuning uchun ham o'z ko'ksini behuzur, siqilgan va tang ahvolda deb hisoblaydi. Ko'krak, qorin hamisha bir narsa, biroq bunda yashovchi tabiatlarning soni ikki yoki beshta emas, balki behisobdir; inson yuz qobiqdan iborat piyoz, ko'p ipdan tashkil topgan matodir. Qadimgi osiyoliklar buni to'g'ri anglagan va bilgan, Budda yoglarining falsafiy tizimida shaxsdagi vasvasani fosh qilishning aniq texnikasi o'ylab topilgan. Odamzodning ishlari naqadar qiziq va ajoyib: Hindiston ming yil mobaynida fosh etishga zo'r berib harakat qilgan xato G'arb qo'llab-quvvatlab, mustahkamlash-chun astoydil uringan narsaning o'zginasidir.

Cho'l bo'risiga xuddi shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, uning nima uchun kulgili tarzda qo'sh tabiati orqasida shu qadar

iztirob chekishi bizga birmuncha oydinlashadi. U xuddi Faustga o'xshab ikki tabiat bir ko'krakka ko'plik qiladi va ular ko'krak qafasini hatto yorib yuborishi mumkin deb hisoblaydi. Ular, aksinch, ozlik qiladi va Harri o'zining sho'rlik vujudini shu qadar jo'n, ibtidoiy qiyofada tushunishga harakat qilib, uni dahshatli tarzda azoblaydi. Harri, garchi u o'ta o'qimishli kishi bo'lsa-da, ikkidan ortiq sanashni bilmaydigan yovvoyidek hammayoqni chalkashtirib yuboradi. U o'zining bir bo'lagini odam, boshqa bir qismini esa bo'ri deb ataydi, bu bilan o'zini masalaning oxiriga yetgan va u hal bo'lgan deb hisoblaydi. «Inson»ga u o'zida uchraydigan barcha ma'naviyat, ulug'vorlik, olijanoblik yoki nafosat, go'zallikni joylaydi, bo'riga esa barcha g'ayriixtiyoriy bo'ladigan narsalarni, yovvoyilik, tartibsizlik va chalkashliklarni joylashtiradi. Lekin hayotda voqelik biz fikrlagandek sodda, biz esi pastlarning g'arib tilimizdagidek qo'pol kechavermaydi va Harri agar u ana shu habashlarga o'xshab bo'rilik usulini qo'lasa, o'zini ikki karra aldanib bo'ladi. Harri o'z ko'nglining chekka-chekkasini, garchi ular hal «odam» bo'lmasada, «inson» deb hisoblaydi, allaqachon bo'ridan xoli bo'lgan qismlarini esa bo'ri vujudiga mansub deb biladi.

Uslubiy ko'rsatmalar

H.Hessening romaniga murojaat qilishning bir qator sabablari bor. Ma'ruzalarga ajratilgan soatlarning cheklanganligi bois, odatda, yigirmanchi asrning birinchi yarmi nemiszabon adabiyotining eng murakkab asarlaridan biri bo'lgan «Cho'l bo'risi»ni batafsil ko'rib chiqishga vaqt yetishmaydi. Ushbu asarni tanlashdan maqsad u nafaqat yozuvchi ijodida, shu bilan birga, Gyote va Novalislar boshlab bergan nemis romanchiligi an'analarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Harri haqidagi romanda Hessening olam va insonni tasvirlashdagi o'ziga xos ushbu to'la shakllantirilgan. «Cho'l bo'risi»da muallif Yevropa uchun eng dolzarb bo'lgan muammoni – Yevropa sivilizatsiyasining kelajagi, uning inqirozi, unda o'tmish madaniyatining o'rni va roli muammosini ko'tarib chiqadi.

Roman XX asr kishisining o'ziga xos xarakter tipi yaratilganli-

gi bilan diqqatga sazovor – unda, bir tomondan, inson ruhiy dunyosini chuqur ochish uchun psixoanaliz uslublaridan foydalanilgan, ikkinchi tomondan, Gyote va Novalislar boshlab bergan tavbatarru prozasi an'analari o'ziga xos tarzda boyitilib, davom ettirilgan.

Mashg'ulotlar muvaffaqiyatli chiqishining asosiy shartlaridan biri roman matni bilan oldindan tanishib chiqishdir. O'qish samarali bo'lish uchun uni quyidagi savollar bilan yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Hessening «Sehrgarning yoshligi», «Kitob o'qish haqida» es-selarini o'qib chiqing va yozuvchi dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlang.

2. «Aka-uka Karamazovlar yoki Yevropaning botishi» maqolasini o'qib chiqib, Hesseda xaos tushunchasi talqinini aniqlang.

3. «Cho'l bo'risi» romanining kompozitsiyasiga e'tibor bering. Asar kompozitsion elementlarining juda sinchkovlik bilan qurilishiga nima sabab bo'lganiga javob topishga harakat qiling. Romaning har bir qismida kim va nima uchun hikoyachi rovida chiqadi?

4. Butun asar davomida makon va vaqt bilan o'ziga xos o'yin olib boriladi. Romaning bu o'ziga xos xususiyatini qanday tushuntirish mumkin?

5. Hesse romanini «Cho'l bo'risi» deb nomlagan, ushbu metafora asarda o'z ifodasini qay tarzda topgan?

6. Mashg'ulot boshlanishidan oldin «klassika», «klassik», «chaos», «burger», «meshchanlik» kabi so'zlarning ma'nosini yana bir bor aytib o'tish zarur.

Amaliy mashg'ulot rejai (1-variant)

1. H.Hesse maqolalariga tayanib shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlang. Xonadondagi muhit va Hessening kichik olam hamda madaniyat olamining inson hayotidagi o'rniga bergan bahosiga ahamiyat bering.

2. Hessening «Cho'l bo'risi»gacha bosib o'tgan yo'li va asarning yozuvchi ijodidagi o'rni. Avtobiografik omil va uning asar yaratishdagi o'rni.

3. Roman kompozitsiyasi. Asarda katta va kichik olam modeli. Madaniyat olami va uning asardagi vazifasi.
4. Kichik olam va asarda uni yaratish usullari. Cho'l bo'risi: obraz tipologiyasi. Uning asar obrazlari sistemasidagi o'rni.
5. Romanning janr xususiyatlari.

Amaliy mash'ulot rejası (2-variant)

1. H.Hesse ijodi XX asr adabiyoti kontekstida:
 - a) Hesse hayoti va ijodi;
 - b) yozuvchining shakllanishida oilaviy muhitning ta'siri.
2. «Cho'l bo'risi» romanining janr xususiyatlari.
3. H.Hesse uslubining o'ziga xos xususiyatlari.

Mablar

1. Хессе Х. Чул буриси / М.Ақбаров таржимаси // Жаҳон адабиёти. 2000. №11.
2. Хессе Х. Чул буриси. – Тошкент: Шарқ, 2006.
3. Гессе Г. Степной волк // Гессе Г. Кастальский ключ. – М., 1995.
4. Гессе Г. Собр. соч. в 4-х т. – СПб., 1994.

Ilmiy-tanqidiy adabiyotlar

1. Херман Х. Адабий танқид // Жаҳон адабиёти. 2003. №7.
2. Каралашвили Р.Г. Мир романа Г.Гессе. – Тбилиси, 1984.
3. Науменко А.С. Гессе Г. Магия книги. – М., 1990.

Referat va ma'ruzalar uchun mavzular

1. H.Hesse ijodida «inson va tabiat» mavzusi.
2. Nemis romantizmi an'analari H.Hesse ijodida.
3. «Cho'l bo'risi» romanida birlik va umumiylikning o'zaro munosabati.
4. H.Hessening «Cho'l bo'risi» romanining falsafiy xarakteri.
5. H.Hesse ijodining o'ziga xos xususiyatlari.

4-MAVZU. X.L.BORXES (1899 – 1986)

Borxes novellalarining «poetik g'oyasi»

Har bir yozuvchi o'z o'tmishdoshlarini barpo qiladi. U tomonidan yozilgan narsa o'tmish haqidagi tushunchamizni xuddi kelajagimizni o'zgartirgandek o'zgartirib yuboradi.

Odam yozayotgan narsa, uning niyat-maqсадlari chegarasidan chiqib ketishi kerak... adabiyotning sirliligi ham aynan mana shunda.

X.L.Borxes



Argentinalik buyuk yozuvchi X.L.Borxes hayotlik chog'idayoq ko'plab adabiy mukofotlar, faxriy unvonlar (Servantes va «Formentor» mukofotlari sovrindori, Britaniya imperiyasining «Buyuk xizmatlari uchun» va Ispaniyaning «Don Alfons xochi» ordenlari sohibi, Italiya Respublikasi Kommendatori, «Adabiyot va san'a» sohasidagi xizmatlari uchun» Faxriy legion komandori, Sarbonna, Oksford va Kolumbiya universitetlari «gonoris kauza» doktori)ga sazovor bo'lgan.

Borxes Buenos-Ayres shahrida huquqshunos oilasida dunyoga keldi. Psixologiya professori bo'lgan otasi o'g'lida yoshligidan inglizabon adabiyotga mehr uyg'ota oldi. Borxes 8 yoshida O.Uayldning «Baxtli shahzoda» asarini ingliz tilidan ispanchaga o'girdi.

1914-yili betob otasi iste'foga chiqib, Borxeslar oilasi Shveysariyaga ko'chib o'tgandan so'ng bo'lajak yozuvchi Jeneva litseyida ta'lim oldi. Bu yerda u Vergiliydan boshlab Kafka asarlarigacha o'qib chiqdi, nemis ekspressionistlari ta'sirida ilk she'rlarini yozdi.

1919-yili yozuvchi oilasi bilan Ispaniyaga ko'chib o'tdi. 20-yillarda Borxes modernistlarning «Gretsiya», «Kosmopolis», «Ultra» jurnallarida she'rlarini chop ettirdi, neobarokko shoirlari guruhi bilan yaqinlashdi. Ushbu guruh a'zolari metaforani asos element sifatida qabul etib, she'riyatning bosh maqsadi deb e'lon qilgan edilar. Ultrachilarning metaforalari deyarli vizual (ilg'ab bo'lmas) xarak-

terga ega bo'lib, Borxesning 1921-yilda Argentinaga qaytib kelib chop ettirgan ilk she'riy to'plamlarida o'zining yorqin ifodasini topdi («Buenos-Ayresga ehtiros» (1923), «Ro'paradagi oy» (1925), «San-Martin daftarchasi» (1929).

She'riyatda o'z ovozi va o'rni topa olmagan Borxes nasriy asarlar yoza boshlaydi. Natijada 1925-yil «Tergovlar», 1915-yili «Umid makoni» va 1928-yili «Argentaliliklar tili» esellar to'plamlarini nashrdan chiqaradi. 1935-yili yozuvchining «Razil-likning jahon tarixi» kitobi chop etiladi, shundan so'ng «Abadiylik tarixi» (1936), «Uydirmalar» (1944), «Yangi tergovlar» (1952), «Broudi xabari» (1970), «Qush kitobi» (1975) kabi kitoblari yozildi.

Prozaga o'tgan Borxes mohiyatan shoirlicha qoldi. U ko'p marta hikoyalarning «ommiy poetik ta'siri» va «poetik g'oyasi» haqida gapirib, asosiy e'tiborini uslubga emas, so'zga qaratganligini, uni turli kontekstlarda qo'llab, ma'nosini boyitganligini ta'kidlagan.

Rasman Borxes prozasining poetikasi postmodernizmga yaqinligi qayd etiladi. Yozuvchi asarlarining matn tuzilishida postmodernizm qonun-qoidalariga xos xislatlar, tasniflar, so'z o'yinlariga katta e'tibor qaratganligini kuzatish mumkin.

Uning novellalariga fabula (voqea+zanjir)ning kuchsizligi yoki umuman yo'qligi xos bo'lib, adib boshlang'ich asos sifatida ko'pincha favqulodda to'qnashuv yoki nogahoniy farazni qo'llaydi, shunda u yoki bu holat, fakt, nuqtayi nazarining ma'no maydonini kengaytirish imkoniyati paydo bo'ladi. Voqealar rivojini esa yechim yoki oxirgi nuqtaga olib bormaydi. Matndagi «men» – bu matn mag'zini chaqqanning «meni»dir.

Borxesning usuli, uni o'qish strategiyasining asosiy tamoyili shundan iboratki, unga ko'ra «xususiylikda umumiylikni» ko'ra bilish kerak. Borxes o'zini birinchi navbatda kitobxon deb atab, kitobxon Borxes yozuvchi Borxesdan qiziqarliroq ekanini ta'kidlaydi. Yozuvchi uchun har doim «umumiy makon»ni, «xilma-xillikda bir xillikni» izlash muhim edi. Uni yagona til, cheksiz kitob, universal kutubxon ma'no chegarasining obrazi sifatida o'ziga jalb qilgan. «Xususiylikda umumiylikni» anglab yetish – «sening olamning boshqa olamga daxldorligini» ko'zda tutadi (Borxes

uchun o'lim nuqtasi – bu hayot nuqtasidir). Olamni anglashga intilayotgan inson uchun bu qadamdan chetlashish, uni ortib boruvchi va shaffof bo'shliq labirintiga kirib qolib, kuzatuvchiga aylanib qolishga olib kelishi mumkin. Borxesda labirint (ayrilib, tarqalib ketuvchi so'qmoqchalar bog'i) dunyoning turg'un obrazi sifatida talqin etiladi. Ko'plikdagi umumiy birlikning obrazli talqini sifatida qaysidir birlamchi nuqta xizmat qilishi mumkin, xattiharakatlarimizda yaxlitlik mavjud bo'lsagina, u ma'no kasb etadi («Alef»).

Alohida zavq-shavq bilan antologiyalar⁴ tuzgan Borxes do'stlari bilan hamkorlikda quyidagilarni chop ettirdi: «Fantastik adabiyot antologiyasi» (1940-yil), «German adabiyoti antologiyasi» (1951-yil), «Qisqa va favqulodda voqealar» (1955-yil).

Ingliz tilidan tashqari nemis, fransuz, italyan, portugal, lotin, shved, qadimgi ingliz va qadimgi island tillarini bilgan Borxes Kipling, J.Joys, Folkner, V.Florid asarlarini tarjima qildi.

XX asrning buyuk yozuvchilaridan biri bo'lgan Xorxe Luis Borxes zamonaviy adabiy jarayonga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

Bobil kutubxonasi

Bu san'at sizga yigirma uch harfdan iborat birikmalarni mushohada qilish imkonini beradi.

«Melanxoliya atomiyasi»

Koinot – ba'zilar uni kutubxonada deb ataydilar – ulkan, ehtimol, past panjarali, keng shamollatish quduqlari bor, miqdori cheksiz olti qirralik galereyalardan tashkil topgan. Har bir olti qirralikdan – cheksizlikkacha – yuqoridagi ikki va pastdagi ikki qavatlar ko'rinib turadi. Galereyalarning har bir devorida yigirmatadan (ikkitasidan tashqari) to'kcha bo'lib: ularning balandligi qavatning balandligiga teng, o'rta bo'yi kutubxonachining bo'yidan salgina baland, beshatdan uzun to'kcha. Ochiq tomonlardan biriga birinchi va boshqa barchalariga o'xshash, boshqa galereyaga olib boru-

⁴ Antologiya – turli mualliflarning saylanma asarlari, ko'pincha she'rlar to'plami.